

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

O‘zbek filologiyasi fakulteti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini

Siddiqova Mahliyo O‘tkir qizi

Qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar

5220100 – Filologiya (o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi

Malakaviy bitiruv ishi

Ilmiy rahbar: dots. G‘afforov

Rasmiy taqrizchi: prof. N.Q.Turniyozov

Malakaviy bitiruv ishi o‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2018 yil 28 maydagi majlisi muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan (1-son bayonnoma).

Kafedra mudiri: f.f.d. A.Pardayev

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2018 yil iyundagi majlisida himoya qilingan
__ ball bilan baholangan (__ - son bayonnoma).

YaDAK raisi

prof. Sh.Shahobiddinova

A‘zolari:

SAMARQAND-2018

Mundarija

Ishning umumiy tavsifi	3
Kirish	8
I bob. Qiyoslash mazmunini ifodalagan ergash gapli qo‘shma gaplarning shakllanishi	19
1.1. Qo‘shimchalar yordamida qiyoslash mazmunini ifodalash.....	28
1.2. Yordamchi so‘zlar vositasida qiyoslash mazmunini ifodalash.....	30
1.3. Nisbiy so‘zlar vositasida qiyoslash mazmunini ifodalash.....	34
II bob. Qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gap tiplari	39
2.1. Chog‘ishtirish mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar.....	40
2.2. O‘xshatish mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar.....	43
2.3. Miqdor-daraja ma’nosini ifodalagan ergash gapli qo‘shma gaplar.....	53
Xulosa	58
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	62

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Turkiyshunoslikda, xususan, o‘zbek tilshunosligida qo‘shma gap va uning tabiati masalasi bir necha o‘n yillardan beri o‘rganilib kelinadi. Qo‘shma gap muammosi o‘zbek tulshunosligida XX asrning 30-yillaridan keyin ma’lum darajada ishlana boshladi.

Tilshunoslik fanida qo‘shma gap mavzusi azaldan muammoli bo‘lib keldi va bugungi kunda ham uni muammolardan xoli deb bo‘lmaydi. Buning boisi shundaki, qo‘shma gap fikr ifodasi va sintaktik shaklining eng yuqori va murakkab pog‘onalaridan birini tashkil etadi.

Qo‘shma gap til sintaktik sathining oliy birligidir. Sodda gap ham sintaktik sath birligi hisoblansa-da, u qo‘shma gapga qaraganda ixchamdir. Qo‘shma gap sodda gapdan mazmun sig‘imining kattaligi, sintaktik tuzilishining o‘ziga xosligi, murakkabligi bilan farqlanadi.

Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tili materiallari asosida ham qo‘shma gaplar va ularning turlari ancha mukammal o‘rganilgan. Lekin tilshunoslikda ham yangi ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan yoki jahon tillarining umumiy taraqqiyoti bilan chambarchas aloqador bo‘lgan sohalar har doim mavjuddir.

Shunday ekan, malakaviy-bitiruv ishimizning mavzusini tashkil etgan qiyoslash munosabatini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar sintaktik shakllanishi qonun-qoidalarini o‘rganish ham hozirgi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

Tanlangan mavzuning dolzarbligi, albatta, yuqoridagi mulohazalarga asoslanadi. Yuqoridagilarni hisobga olib, mavzuning dolzarbligidan kelib chiqib, qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gaplarning shakllanishi qonun-qoidalari bitiruv ishi doirasida o‘rganishga harakat qilindi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Aytish joizki, an’anaviy tilshunoslikda yaratilgan tadqiqotlarning ahamiyati benihoya kattadir. Qo‘shma gap va uning

tarkibiy xususiyatlariga bag'ishlangan ishlardagi ilmiy asoslangan g'oyalar bugungi tilshunoslikda qo'shma gap tabiati va uning mazmuniy xususiyatlariga oid yangicha qarashlarning paydo bo'lishi uchun qonuniy ravishda mustahkam zamin hozirlaydi. Qo'shma gap masalalari jahon, xususan, rus tilshunosligida va turkologiyada ham ancha keng tadqiq etilgan. Qo'shma gapning eng nozik tomonlarini bundan o'ttiz yillarcha oldin ustoz G'.Abdurahmonov o'z asarlarida aytib o'tganlar. Shunga qaramay, bu sohada hali yechilmagan jumboqlar anchagina. Bu masalaning har xil tomonlari, asosan, uning semantik xususiyatlari M.Asqarova, A.G'ulomov, R.Sayfullayeva, N.Turniyozov, B.Turniyazov, A.Nurmonov, N.Mahmudov kabi olimlarimiz asarlarida tahlil etilgan.¹

Tadqiqotning obekti va manbalari. O'zbek tilshunosligida qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gaplarning shakllanishini o'rganish sohasida yaratilgan tadqiqotlar, o'zbek tilshunosligi muammolari o'rganilgan ilmiy va o'quv adabiyotlari, xususan, darslik va o'quv qo'llanmalari tadqiqotning obekti hisoblanadi. Malakviy bitiruv ishida mustaqillikkacha va istiqlol yillarida o'zbek tilshunosligida yaratilgan ilmiy va o'quv adabiyotlarida qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplarni qo'llash holati o'rganilib, ularga munosabat bildirilgan.

Tadqiqot ishining kafedra ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Samarqand Davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2017-2018-yillarga mo'ljallangan "O'zbek tili birliklarining funksional – pragmatik va semantik – uslubiy tahlili (sinxron va diaxron aspekt)" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga asosan bajarilgan.

Tadqiqotning metodologik asoslari va tadqiq usullari. Keyingi yillarda tadqiqot olib borilayotgan ilg'or metodologiya, milliy istiqlol va milliy g'oya

¹ Абдурахманов Г.А. Основы синтаксиса сложного предложения современного узбекского литературного языка. – Ташкент, 1960. Сайфуллаева Р. Эргашган кўшма гапнинг таснифи. // Ўзбек тили ва адабиёти, – 1989, 3-сон. Нурмонов А., Махмудов Н., Аҳмедов А., Салихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент: Фан, 1992. Турниёзов Н. Кўшма гап синтаксиси. – Самарқанд, 1995. Турниёзов Б. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деравацияси. – Самарқанд, 2008. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.

tahlili aks etgan Sh.Mirziyoyev asarlari, tilshunoslikda o'z o'rnini topayotgan yangicha qarashlar asos sifatida olinib, qiyosiy, tavsifiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. O'zbek tilshunosligida qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplar muammolari ularga munosabat, o'zbek tilshunosligida yaratilgan ilmiy va o'quv adabiyotlarda to'siqsiz ergash gaplarning ishlatilishi istiqlolgacha va mustaqillik yillari ilmiy hamda o'quv adabiyotlari misolida malakaviy bitiruv ishi shaklida umumlashma nazariy asosda tahlil etilgan.

Himoyaga olib chiqiladigan masalalar quyidagilar:

- Hozirgi o'zbek tilida ergash gapli qo'shma gaplarning, jumladan, qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplarning tadqiqi holatini o'rganish.
- Bu masala bilan shug'ullangan tilshunoslarning fikrlariga munosabat bildirish.
- Qiyoslash munosabatini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplarning shakllanish usullarini yoritish.
- Qiyoslash munosabatini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplarning bosh gap bilan semantik va sintaktik munosabati yo'llarini izohlash.
- Qiyoslash munosabatini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplarning umumiy shaklini beruvchi sintaktik qurilmalar shakllanishini ta'minlovchi asosiy grammatik vositalarning tavsifini berish.
- Ishning umumiy mazmunidan kelib chiqib umumiy xulosalar yasash.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tilshunoslik taraqqiyotidagi erishilgan yutuqlar ta'limning samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"(1997)gi qonuni talablari nuqtayi nazaridan fikr yuritganda, bugungi kunda tayyorlanayotgan mutaxassislar jahon andozalariga javob bera oladigan, chuqur bilimli, bilimni amaliyot bilan

bog'lay oladigan va qo'llaydigan yetuk kadrlar bo'lishi lozim. Ta'lim jarayonida qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gaplar materiallarini o'rganishni osonlashtiradi, fan asoslarini puxta o'zlashtirishni ta'minlaydi. Ana shu nuqtayi nazardan malakaviy bitiruv ishi materiallaridan talabalar kurs ishi, referat yozish va mustaqil ish jarayonida foydalanishlari mumkin.

Ishning joriylanishi. Mazkur mavzu yuzasidan to'plagan materiallarimiz asosida SamDU talabalarining ilmiy-tadqiqotlari natijalariga bag'ishlangan konferensiyalarda va kafedraning "Yosh tilshunos" ilmiy to'garagi mashg'uloti majlisida bu mavzuda ma'ruza qilingan.

Ishning hajmi va tuzilishi. Mazkur ish 60 betdan iborat bo'lib, ishning umumiy tavsifi, kirish, ikki asosiy bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Ishning mazmuni. Malakaviy bitiruv ishini yozishda sintaksisga oid turli xil ilmiy adabiyotlar va badiiy adabiyotlardan olingan misollardan foydalanildi. Bu misollarda qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplar o'z aksini topgan. Ishning umumiy mazmuni quyidagilardan iborat:

Kirish qismida hozirgi o'zbek tilida qiyoslash nazmuni ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplarning o'rganilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Ergash gapli qo'shma gaplarning shunday turlari borki, ularda ergash gapdagi mazmunga qiyoslash orqali bosh gapning mazmuni ochiladi. Bunday holda ergash gaplar bosh gapdan anglashilgan harakat, holat, belgi-xususiyatlarga qiyoslash, o'xshatish orqali ifodalashi mumkin. Ular qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplardir.

Ergash gaplarning har qanday turi ham u yoki bu tarzda bosh gapda muayyan bir bo'lak bilan aloqalanadi. Tabiiyki, bu aloqalanish usullari xilma-xildir. Turkiy tillarda ergash gapli qo'shma gaplarning o'rganilish holatini qoniqarli deyish mumkin. Chunki turkiy tillarning har birida ergash gapli qo'shma gaplar bog'langan qo'shma gaplarga nisbatan ancha mukammal ishlangan. Lekin shuni ham aytish kerakki, lisoniy tadqiqotning boshqalarida bo'lgani singari, qo'shma

gaplar ham ko'proq rus tilidagi muqobil sintaktik qurilmalar qolipida yoritildi. Ana shu sababdan turkiy tillarda qo'shma gap nazariyasi bobida birmuncha munozarali. Shulardan kelib chiqib biz qiyoslash mazmuni ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplarni tekshirish ob'yekti sifatida tanladik va uni ikki bobga bo'lib tadqiq etdik.

Birinchi bobda qiyoslash mazmunini ifodalagan ergash gapli qo'shma gaplarning shakllanishi haqida ma'lumot berilgan. Voqealar o'rtasidagi munosabat ergash gapli qo'shma gaplarda aniq va to'liq ifodalanadi. Bu munosabatning ifodalanishi va belgilanishida bog'lovchi va bog'lovchi vositalarning o'rni benihoya muhimdir. Bu bog'lovchi vositalar o'z mazmuniga ko'ra muayyan munosabatga kirishayotgan voqealarni faqat bog'lash uchungina xizmat qilmaydi, balki bunga qo'shimcha ravishda yana turli modal ma'nolar, so'zlovchining subyektiv munosabatlarining ifodalanishi uchun ham ko'mak beradi.

Bu bobda biz qo'shimchalar, yordamchi so'zlar va nisbiy so'zlar vositasida qiyoslash mazmunini ifodalash haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tdik.

Ikkinchi bobda qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gaplarning tiplari haqida fikr yuritilgan. Chog'ishtirish ma'nosini ifodalovchi ergashgan qo'shma gaplarda bosh gapdan anglashilgan belgi-xususiyat ergash gapdagi mazmunga qiyoslash chog'ishtirish orqali ifodalanadi. O'xshatish mazmunidagi ergash gap o'xshatish, qiyoslash, tenglik ma'nolarini ifodalab keladi. Bu holatda ergash gap real bo'lgan voqea-hodisalarni va real bo'lmagan xayoliy hodisalarni anglatishi mumkin. O'xshatish ergash gaplar bosh gapga ma'lum intonatsiya yordami bilan bog'lanadi. Miqdor-daraja ma'nosini ifodalagan ergash gaplarda qiyoslash mazmunini ifodalagan ergash gaplar bosh gapda anglashilgan harakat, holat, belgi, xususiyatning qanday darajada, qancha miqdorda ro'y berishi yoki bermasligini anglatishi mumkin. Bu bobda biz yuqorida qayd etilgan tiplarning ma'nolarini izohlab berdik.

Xulosa qismida hozirgi o‘zbek tilida qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplarning ma’no tuzilishini o‘rganish natijasida kelingan xulosalar berilgan.

KIRISH

Mustaqillik yillariga kelib, o‘zbek tilshunosligi yanada rivoj topib bordi. Til faktlarini tahlil etish bo‘yicha tilshunoslikda juda katta yutuqlarga erishildi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lmish ona tilimiz o‘zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo‘ldi.

“Hayotning o‘zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topishi lozim bo‘lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur. Bu o‘rinda gap jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda”.²

“Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”.³

Mustaqillik sharofati bilan jahondagi milliy tillardan hisoblangan o‘zbek tili va uni tadqiq etuvchi o‘zbek tilshunoslik fani bugungi kunda umumtilshunoslikda yuzaga kelgan yangi nazariyalar asosida ravnaq topib, rivojlanishning yo‘liga jadal chiqib bormoqda.

Tilshunoslik fanida qo‘shma gap mavzusi azaldan muammoli bo‘lib keldi va bugungi kunda ham uning muammolari kam deb bo‘lmaydi. Buning asosiy boisi

² Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Вазирлар маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017, 14-январь. -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. 45-47-бетлар.

³ Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимидаги маъруза. 2016, 7-декабрь. -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. 22-бет.

shundaki, qo'shma gap fikr ifodasi va sintaktik shaklining eng yuqori va murakkab pog'onalaridan birini tashkil etadi.

Jahon tilshunosligida qo'shma gap talqiniga bag'ishlangan ilmiy monografik tadqiqotlar ko'p bo'lishiga qaramay, bu sohada hali yechilmagan jumboqlar anchagina. Ular jumlasiga qo'shma gap tarkibiy qismlarining nomlanishi, ularning tub strukturaga munosabati, tarkibiy qismlarining o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi grammatik va ekstralingvistik omillarning funksional salmog'ini aniqlash va umuman „Qo'shma gap" birliklarining qo'llanishi bilan bog'liq ko'plab munozarali masalalarni kiritish mumkin.⁴

Turkiy tillarda ergash gapli qo'shma gaplarning o'rganilish holatini qoniqarli deyish mumkin. Chunki turkiy tillarning har birida ergash gapli qo'shma gaplar bog'langan qo'shma gaplarga nisbatan ancha mukammal ishlangan. Lekin shuni ham aytiah kerakki, lisoniy tadqiqotning boshqalarida bo'lgani singari, qo'shma gaplar ham ko'proq rus tilidagi muqobil sintaktik qurilmalar qolipida yoritildi. Ana shu sababdan turkiy tillarda qo'shma gap nazariyasi bobida birmuncha munozarali masalalar ham kuzatiladi. O'zbek tilidagi qo'shma gaplarning tasnifi, umuman, boshqa tillardagi qo'shma gaplar tasnifiga yaqin turadi. Chunki turkiy tillardagi qo'shma gap nazariyasi boshqa tillardagi qo'shma gap nazariyasi bilan uzviy bog'langan. Ergash gapli qo'shma gaplarni yaxlitligicha sodda gaplarga, ergash gaplarni esa sodda gap bo'laklariga o'xshatishga asoslangan tasnif juda keng tarqaldi. Bu tasnif qolipi o'zining mohiyat e'tibori bilan XIX asrning o'rtalarida shakllandi. Uning yaratilishida F.I.Buslayevning xizmatlari benihoya kattadir. Bu tasnifga muvofiq ergash gaplar orasida ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol ergash gaplar farqlanadi. Hol ergash gaplarning turlari sifatida o'rin, ravish, daraja-miqdor, payt, sabab, maqsad, shart, to'siqsiz ergash gaplar ajratiladi.

⁴Tурниязов Б. Н. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси. - Самарқанд, 2008, 6-бет.

Umuman, qo'shma gap murakkab va qiziqarli muammo. Professor R.Sayfullayeva aytganidek, qo'shma gapning eng nozik, ko'z ilg'amas tomonlarini bundan 30 yillarcha oldin muhtaram ustoz G'Abdurahmonov o'z asarlarida aytib o'tganlar⁵. Shuningdek, bu masalaning har xil tomonlari, asosan, ularning semantik xususiyatlari M. Asqarova, F.S. Ubayeva, K. Nazarov, S. Ravshanova kabi olimlarimiz asarlarida tahlil etilgan.

Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar unga xos semantik, grammatik intonatsion xususiyatlarga ega: ana shu xususiyatlari bilan ular mustaqil qo'llanuvchi sodda gaplardan ajralib turadi. Shuning uchun ham har qanday sodda gaplarni biriktirib qo'shma gap hosil qilish mumkin emas. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar ikki xil aloqaga kirishishi mumkin: 1. Teng aloqa; 2. Tobe aloqa.

Grammatik jihatdan teng aloqaga kirishuvchi gaplar bog'langan qo'shma gaplarni tashkil etadilar. Biri ikkinchisiga tobe bo'lgan gaplar esa, ergash gapli qo'shma gapni hosil qiladilar. Teng aloqada qo'shma gap qismlari mazmunan nisbiy mustaqillikka va sintagmatik tenglikka ega bo'ladi. Ergashgan qo'shma gaplarda birinchi gap ikkinchi gapga mazmunan tobe bo'ladi. Birinchi gap ikkinchi gapni izohlaydi va to'ldiradi. Mazmunan nomustaqil bo'lgan gap shaklan ham mustaqil bo'lmaydi:

Qo'shnilaring ko'nsa, hammalaring yerlaringni yaxlit qilinglar, bir kunda haydatib beraman (A.Qahhor).

Bu qo'shma gap tarkibida uchta sodda gap bor. Ikkinchi va uchinchi gaplar o'zaro bog'langan qo'shma gapni tashkil etadi. Bu sodda gaplar bir-biriga mazmunan tobe emas, biri ikkinchisini izohlamaydi; bu gaplar sintaktik tomondan ham, shaklan ham mustaqildir. Shunga qaramay, bu gaplar birikadi, bir-biri bilan bog'lanadi, qo'shma gapni hosil qiladi, chunki ular umumiy bir fikrning ayrim qismlari hisoblanadi.

⁵Абдурахмонов Г. Основы синтаксиса сложного предложения современного узбекского литературного языка. – Ташкент, 1960. –С. 8.

Shu qo'shma gapning birinchi sodda gapi boshqa gaplar bilan bog'lanib, ergash gapli qo'shma gapni tashkil etadi. Birinchi gap ergash gap bo'lib, u mazmunan va shaklan mustaqillikka ega emas.

R.Sayfullayevaning ta'kidlashicha, o'zbek tilshunosligida qo'shma gaplarning "bog'langan qo'shma gap", "ergash gapli qo'shma gap", "bog'lovchisiz qo'shma gap" tarzida uchga bo'lib o'rganilishi juda e'tirozli bo'lib, mazkur tasnif qaysi prinsipga asoslanganligi ham aniq emas. R.Sayfullayeva qo'shma gap sodda gaplarning birikuvidan hosil bo'lishi haqidagi fikrga tanqidiy yondashadi. Chunki sodda gap fikran nisbiy, intonatsiya jihatdan mutlaq tugallikka ega bo'ladi. Qo'shma gap tarkibiy qismlari bo'lgan sodda gaplar bunday xislatlarga ega bo'lmaydi. Ular shakllariga ko'ra sodda gaplarga o'xshasa-da, ichki tomondan mustaqil sodda gaplardan keskin farqlanadi. Shuning uchun qo'shma gaplar yo nomustaqil sodda gaplardan, yoki predikativ birliklardan tashkil topadi, deyish maqsadga muvofiqdir⁶.

R.Sayfullayeva bundan tashqari yana quyidagi e'tirozlarni ham bildiradi:

"Qo'shma gap ichki turlariga baho berishda ham e'tirozli tomonlar bor. Jumladan, ergash gapli qo'shma gapning mazmun turlari bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarga asossiz ravishda ko'chiriladi. Natijada qo'shma gapning payt mazmunidagi bog'langan qo'shma gap, sabab mazmunidagi bog'langan qo'shma gap singari turlari paydo bo'ladi. Masalaga bunday yondashgandan ko'ra, an'anadan voz kechib, qo'shma gaplarni mazmun jihatdan butunicha alohida o'rganish tuzuk emasmi?"⁷.

Bu masalaning bir tomonini taqozo etsa, uning ikkinchi tomonini ergash gapli qo'shma gaplar tasnifining o'zi ham mukammal emasligida ko'ramiz.

R.Sayfullayevaning tadqiqotlarida qo'shma gaplar talqini ularning sintaktik qurilishini o'rganishga asoslanadi va bunda eng avval gap qurulishining eng kichik

⁶ Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг формалфункционал талқини.-Тошкент, 1994.33-35 бетлар

⁷ Сайфуллаева Р. Кўрсатилган асар, 56- бет.

qolipi Wpm zahirida qo'shma gapning, shu jumladan, bog'langan qo'shma gapning /Wpm , Wpm/ shaklidagi tipik ko'rinishi aniqlanadi. Mazkur tipik ko'rinish tarkibida mustaqil gaplar singari qo'llanila oladigan komponentlarni taqozo etuvchi qo'shma gapning modelini ifoda etadi. “ /Wpm, Wpm/ - bu mustaqil sodda gaplar sifatida qo'llanila oladigan ikki va undan ortiq gapning nutqda ma'lum bir bog'lovchi vosita bilan o'zaro bog'lanishi va bitta intonatsion tugallikka, bitta gap to'xtamiga ega bo'lishidir”⁸.

M.Qurbonovanning fikriga ko'ra qo'shma gaplarning, xususan, ergash gapli qo'shma gaplarning tilshunosligimizda amalda bo'lgan tasnifi nosintaktikdir⁹.

N.Turniyozov bog'lovchili va bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar tarkibiy qismlarining teng huquqli ekanligi birinchi galda ularning tub strukturalari qo'shma gapning tashkil etilishida alohida ahamiyatga egaligi bilan izohlanishini ko'rsatadi, zero, bunday gaplar komponentlarining har biri mustaqil tub strukturaga tayanadi. Ergash gapli qo'shma gaplarning esa semantik strukturasi ham, sintaktik shakli ham, asosan, hokim gapning tub strukturasi asoslanadi. Chunki ergash gap o'zi uchun emas, balki hokim mavqega ega bo'lgan ikkinchi bir gap uchun xizmat qiladi¹⁰.

Ergash gapli qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplar xarakteriga ko'ra ikki xil bo'ladi. Boshqa bir gapga ergashib, tobe bo'lib, ikkinchi bir gapni izohlab, to'ldirib keluvchi gaplarga ergash gaplar deyiladi. Mazmuni izohlanayotgan boshqaruvchi gap bosh gap hisoblanadi. Ergash gapli qo'shma gaplardagi bosh gap ergash gaplarga qaraganda alohida mavqega ega, bu tabiiy, shuning uchun ham u “bosh gap” deyiladi. Uni yaxlit gap sifatida qo'shma gapning “sinchi” deb ham atash mumkin¹¹.

Ergash gap bosh gapga tuzilishi va mazmuniga ko'ra ham tobe bo'ladi:

⁸Сайфуллаева Р. Қўрсатилган асар, 180-185- бетлар.

⁹Неъматов Х, Сайфуллаева Р, Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. - Тошкент, 1999. 25-бет.

¹⁰Турниёзов Н.Қ. Қўшма гап синтаксиси. - Самарқанд, 1995. 5-6 бетлар

¹¹ Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Тошкент, “Фан”, 1992. 228-бет.

Xudo nasib qilsa, kitobingiz talash bo'lib ketadi (Q.Norqobil. Kulib tur, azizam, 30-b.).

Keltirilgan misolda qo'shma gapning ikkinchi qismi sintaktik shakli va semantik mavqeiga ko'ra hokim gap ekanligi o'z-o'zidan ko'rinib turibdi. Shuning uchun qo'shma gapning umumiy sintaktik shakli ana shu hokim gapning talabiga binoan unga zamon nuqtayi nazaridan qo'shimcha izoh berish uchun yuzaga kelmoqda. Demak, ergash gapning o'z tub strukturasi bor bo'lsa-da, qo'shma gap umumiy strukturasi shakllanishida bunday tub struktura yetakchi omil bo'la olmaydi. Uning sintaktik shakllanishi bosh gapning talabiga ko'ra yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, ergash gap o'zi uchun emas, bosh gap uchun shakllanadi¹².

Ergash gapli qo'shma gaplar tarkibiy qismlarining o'zaro sintaktik munosabati turli grammatik vositalar ta'sirida yuz beradi. Bu vositalar jumlasiga bog'lovchi so'zlar, nisbiy olmoshlar, shart fe'lining shakli, ravishdosh va sifatdosh shakllari va boshqa ayrim grammatik elementlar kiradi.

Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar ko'pincha ergash gap tarkibida kelib, ergash gapning tobe ekanligini ko'rsatadi. Ergash gap bosh gapga nisbatan ma'lum funksiyani bajaradi, bosh gapdagi bo'lakni aniqlaydi, to'ldiradi yoki uni butunicha izohlaydi. Shunga ko'ra ergash gap bilan gap bo'laklari funksiyasiga ko'ra bir-biriga yaqin turadi. Shuning uchun ham ko'pgina ergash gaplar yoyiq gap bo'laklariga va oborotlarga sinonim bo'lib keladi. Ergash gaplarning tiplarini belgilashda komponentlarni biriktiruvchi grammatik vositalarnigina emas, ergash gap bosh gapga nisbatan qanday funksiyani bajarishligini, shuningdek, ergash va bosh gaplarning o'zaro munosabati, tuzilish xususiyatlarini hisobga olamiz.

Ergash gaplar ba'zi xususiyatlariga ko'ra so'z birikmalariga yaqin turadi:

- 1) ergash gaplar so'z birikmalariga o'xshab turli sintaktik konstruksiyalar uchun qurilish materiali sanaladi. Natijada ergash gaplar mazmun va grammatik jihatdan nisbiy mustaqillik xususiyatiga ega bo'ladi;

¹² Фортунатов Ф.Ф. Избранные труды, ч.1. – М.,1956.- С.188.

2) ergash gaplar soʻz birikmalaridek turli sintaktik holatlarda maʼlum mazmun va oʻziga xos boʻlgan ichki tuzilish xususiyatlarini saqlaydi.

Shu bilan birga soʻz birikmalari bilan ergash gaplar bir-biridan quyidagicha farqlanadi:

- 1) soʻz birikmalari koʻpincha ikki mustaqil soʻzdan tashkil topsa, ergash gaplar bir soʻz yoki bir necha soʻzning birikuvidan tashkil topadi;
- 2) soʻz birikmalari nutqning nominativ birligi sanaladi. Shuning uchun ham predikativlik xususiyatini oʻzida saqlamaydi. Ergash gap esa, mustaqil boʻlmasa ham, predikativlik xususiyatiga ega;
- 3) ergash gaplar maʼlum mazmunni ifodalaydi, soʻz birikmalarida bu xususiyat toʻliq emas.

Ergash gaplar tuzilishiga koʻra mustaqillikni ancha yoʻqotgan, bosh gap esa biroz yoʻqotgan boʻladi. Shuning uchun bosh gap tuzilishiga koʻra mustaqil sodda gaplarga oʻxshaydi. Baʼzan asosiy fikr bosh gapda emas, ergash gapda aytilgan boʻlib, grammatik jihatdan bosh gapga yaqin boʻladi. Qoʻshma gaplardagi sintaktik komponentlarning har birida predikativlik munosabati aks etgan boʻlishi kerak. Chunki gapni tashkil etuvchi asosiy boʻlaklar ega va kesimdir. Qoʻshma gap komponentlarida ega “yashirinishi”, qoʻllanmasligi mumkin:

Qachon qaragam, qoʻynimni puch yongʻoqqa toʻlgʻazasiz
(Oʻ.Usmonov.Girdob).

V.A.Beloshapkova ergash gapli qoʻshma gaplarning ikki asosiy tipini ajratgan: ikki aʼzoli va bir aʼzoli tiplar. Ular oʻrtasidagi farqni muallif bosh va ergash qismlar oʻrtasidagi aloqadorlikning turli tabiati bilan bogʻlaydi: ikki aʼzoli gaplarda ergash qism bosh qism bilan yaxlitligicha bogʻlanadi, bir aʼzoli gaplarda ergash

qism bosh gapdagi bir soʻzga tegishli boʻladi, bunda u bu soʻzni rivojlantiradi yoki aniqlashtiradi¹³.

Ergash gaplarning bosh gaplarni yaxlitligicha izohlashi yoki uning biror boʻlagi bilan aloqador boʻlishi haqidagi qarash turkiyshunoslikda ham keng tarqalgan. Masalan, M.A Asqarova shunday taʼkidlaydi: "Ergash gap esa mazmun va strukturasi koʻra bosh gapdan boshqacharoq tuzilib, bosh gapning biror boʻlagini yoki bosh gapni yaxlitligicha izohlaydi"¹⁴. R.Sayfullayevaning fikricha ham: "Ergash gap bosh gapning biror boʻlagini izohlaydi. Agar bosh gapdagi izohlanuvchi boʻlak ifodalanmasa, ergash gap bosh gapni butunicha izohlaydi"¹⁵.

Ergash gapli qoʻshma gap komponentlarining funksional tahlili xususida maʼlum bir tushunchaga ega boʻlish uchun ularning tarkibiy qismlari xarakteri haqida, va umuman, ergash gapli qoʻshma gaplar tuzulishi togʻrisida yetarli maʼlumot ham talab qilinadi. Zotan, ergash gapli qoʻshma gaplar sintaktik tuzilishi, bogʻlangan qoʻshma gaplardan farqli ravishda, yagona tub struktura asosida vujudga keladi.

Ularning yagona tub struktura asosida shakllanishining asosiy boisi qoʻshma gapning tarkibiy qismlari mazmunan va sintaktik tuzilishi jihatdan ham oʻziga xos belgilarga ega ekanligidir. Boshqacha aytganda, bosh gap sintaktik va semantik nuqtayi nazardan ham hokim sanaladi.

Qoʻshma gapning umumiy sintaktik strukturasi yolgʻiz bir fikr ifodasining til unsurlari vositasida sintaktik jihatdan rasmiylashtirilishi evaziga shakllanadi. Bu jarayonda bosh gapning maʼlum bir unsurini yoki uning umumiy mazmunini toʻldirish va izohlash uchun shakllanayotgan boshqa gap yoki gaplar ikkinchi darajali boʻlib, bosh gapga qaram boʻladi¹⁶.

¹³Белошапкина В.А. Современный русский язык. Синтаксис.- М.: Высшая школа, 1977.- С 220.

¹⁴ Ғулумов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3- нашри,-Тошкент, 1987.187- бет.

¹⁵Сайфуллаева Р. Эргашган қўшма гапнинг таснифи.// Ўзбек тили ва адабиёти,1989. 3-сон, 22- бет.

¹⁶ Турниёзов Н.Қ. Ўзбек тили структурал синтаксисига кириш.- Самарқанд,1989.54-бет.

Ular chiqishi bilan olam sukutga cho‘mda, go‘yo atrofda tirik bir jon yo‘qday (O.Yoqubov. Adolat manzili,172-b.).

Ko‘rinadiki, ketirilgan qo‘shma gapning birinchi qismi mazmunan va sintaktik tuzilishiga ko‘ra ancha mukammaldir. Ikkinchi qism esa birinchi qismda fe‘l-kesim orqali ifodalanayotgan xabarga qiyoslash mazmuni qolipida qo‘shimcha ma‘lumot bermoqda. Aslida yolg‘iz bir gap ifodalayotgan mazmun bilan chegaralanish ham mumkin edi. Chunki qo‘shma gapda berilayotgan xabarning asosiy mag‘zi ana shu sintaktik qurilmada voqelanadi.

Ergash gapli qo‘shma gaplarning tobe qismlarida, o‘zlarining alohida semantik va sintaktik strukturalariga ega bo‘ladi, albatta. Biroq shunday bo‘lsa-da, u bosh gapning hukmiga to‘liq bo‘ysunadi.

Tobe gapning xarakterli tomonlaridan yana biri shundaki, qo‘shma gapni shakllantiruvchi asosiy morfologik omil aksariyat hollarda uning tarkibida bo‘ladi. Shuning uchun uni ergash gapli qo‘shma gapning shu turida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan boshqa morfologik vositalar bilan almashtirsa bo‘ladi. Qiyoslang:

..... , **go‘yo atrofda tirik bir jon yo‘qday.**//

..... , **xuddi atrofada tirik bir jon yo‘qday.**//

..... , **atrofda tirik bir jon yo‘q kabi.**//

..... , **atrofda tirik bir jon yo‘qqa o‘xshab.**

Bu vositalarning qaysi biri ishlatilishidan qat’i nazar qiyoslash mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan ergash gapli qo‘shma gap hosil bo‘ladi.

U ham Najmiddinovga qarashga jur‘at etmasdi, go‘yo ko‘zi ko‘ziga tushsa Najmiddinov yiqilib tushadigandek (O.Yoqubov. Adolat manzili,165-b.).

Suyun Burgut, go‘yo oldiga qo‘yilgan ovqatni bir yamlab yutgan odamday, xotining maktubini bir ko‘z yugurtirirshdayoq o‘qib chiqdi (O.Yoqubov. Adolat manzili,161-b.).

Eri bilan buvasining tashvishlari yetmagandek, Lochin ham Marjonoyini ko‘p qiynadi (O.Yoqubov. Adolat manzili,142-b.).

Uni aldab ishonchini qozongandan ko‘ra, bor haqiqatni ochib tashlagan yaxshi (O.Yoqubov. Muqaddas, 204-b.).

Mohzoda Oqsoqolning tunov kungi gaplariga qanday kuyungan bo‘lsa, bugun shunday sokin va beparvo edi (M.Qo‘qonboy. Tog‘ qizi, 234-bet).

O‘rmon aholisi qanday qiynalib yashayotgan bo‘lsa, sen ham xuddi shunday yashaysan (O‘zbek xalq ertaklari, 29-b.).

Sen qanchalik muruvvatli va oliyjanob bo‘lsang, u shunchalik kaltafahm ekan (O‘zbek xalq ertaklari, 113-b.).

Berilgan misollarda tobe gap bilan hokim gaplarning semantik va sintaktik munosabatlarini o‘rnatishda turli yordamchilar asosiy vosita tarzida qatnashmoqda. Agar gap tarkibida ularning o‘rni yo‘q deb faraz qilinsa, mutlaqo mustaqil jumlar qoladi. Qiyoslang:

U ham Najmiddinovga qarashga jur‘at etmadi. Ko‘zi ko‘ziga tushsa Najmiddinov yiqilib tushadiganga o‘xshadi.

Suyun Burgut xotining maktubini bir ko‘z yugurtirishdayoq o‘qib chiqdi. Oldiga qo‘yilgan ovqatni bir yamlab yutgan odamga o‘xshadi.

Eri bilan buvasining tashvishi yetarli. Lochin Marjonoyini ko‘p qiynaydi.

Uni aldab ishonchini qozonmaydi. Bor haqiqatni ochib tashlaydi.

O‘rmon aholisi qiynalib yashayapti. U ham qiynalyapti.

Sen muruvvatli va oliyjanobsan. U kaltafahm.

Biroq ana shu mustaqil gaplarni qo‘shma gap doirasida biriktirish uchun ma‘lum morfologik vositalarga ehtiyoj seziladi va shu sababli gap tarkibiga sintaktik zanjir talabiga ko‘ra yangidan kiritilayotgan morfologik vositalar

qo'shma gapning eng muhim unsurlari bo'lib qoladi. Ular qo'shma gaplarning nafaqat sintaktik shakllarini, balki qismlari o'rtasidagi semantik munosabatlarni ham ta'minlaydi. Ana shu jarayonda tobe gap to'ldiruvchi, aniqlovchi, ega, kesim, payt, sabab, qiyoslash vahokazo funksiyalarini olib, bosh gap mazmunini kengaytiradi¹⁷. Yuqoridagi gaplarga an shu nuqtayi nazardan yondashilsa, ularni qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplar tarzida talqin etish mumkin.

Aytilgan mulohazalardan shu narsa kelib chiqadiki, ergash gapli qo'shma gaplarni o'rganishda baribir sodda gapdagi bo'laklarning vazifalaridan andoza olgan ma'qul. Ergash gapli qo'shma gaplarda gapning grammatik asosini bevosita bosh gap tashkil qiladi. Ergash gap esa u yoki bu tarzda ana shu bosh gap tarkibiga muayyan bir bo'lak sifatida kiradi.

Hozirgi o'zbek tilida ergash gapli qo'shma gaplarning o'ndan ortiq turi bor. Quyida ana shularning biri bilan alohida tanishib olamiz.

Ergash gapli qo'shma gaplarning shunday turlari borki, ularda ergash gapdagi mazmunga qiyoslash orqali bosh gapning mazmuni ochiladi. Bunday holda ergash gaplar bosh gapdan anglashilgan harakat, holat, belgi-xususiyatlarga qiyoslash, o'xshatish orqali ifodalashi mumkin. Ular qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplardir.

Ergash gaplarning har qanday turi ham u yoki bu tarzda bosh gapda muayyan bir bo'lak bilan aloqalanadi. Tabiiyki, bu aloqalanish usullari xilma-xildir.

¹⁷ Турниёзов Н., Турниёзова К. Функционал синтаксисга кириш. Тошкент, 2003. 103- бет.

I BOB

Qiyoslash mazmunini ifodalagan ergash gapli qo‘shma gaplarning shakllanishi

Turkiy tillarda ergash gapli qo‘shma gaplarning o‘rganilish holatini qoniqarli deyish mumkin. Chunki turkiy tillarning har birida ergash gapli qo‘shma gaplar bog‘langan qo‘shma gaplarga nisbatan ancha mukammal ishlangan.

Voqealar o‘rtasidagi munosabat ergash gapli qo‘shma gaplarda aniq va to‘liq ifodalanadi. Bu munosabatning ifodalanishi va belgilanishida bog‘lovchi va bog‘lovchi vositalarning o‘rni benihoya muhimdir¹⁸. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar yoki shunday vositalar ergash gapning mazmunini asosan tayin etishi mumkin¹⁹. Bu bog‘lovchi vositalar o‘z mazmuniga ko‘ra muayyan munosabatga kirishayotgan voqealarni faqat bog‘lash uchungina xizmat qilmaydi, balki bunga qo‘shimcha ravishda yana turli modal ma’nolar, so‘zlovchining subyektiv munosabatlarning ifodalanishi uchun ham ko‘mak beradi. Bog‘lovchi vositalarning qo‘shma gapdagi ahamiyati haqida gapirib, Cheremisina M.I. shunday deydi: “Qo‘shma gap tarkibidagi aloqa ko‘rsatkichini o‘z qimmatiga ko‘ra sodda gapdagi kesim bilan qiyoslash mumkin: u qo‘shma gapning tarkibiy cho‘qqisidir”²⁰. Ergash gapli qo‘shma gaplarning mazmuniy sintaksisida, demak, bunday bog‘lovchi va bog‘lovchi vositalarning mazmuni, o‘rni kabi masalalarga alohida e‘tibor bermoq lozim.

N.A.Baskakov hozirgi turk tilidagi ergash gaplarni quyidagi guruhlariga ajratadi:

1. Bosh gapdagi substantiv bo‘laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga ega va to‘ldiruvchi ergash gaplar kiradi.

¹⁸Колосова Т.А. Русские сложные предложения ассиметричной структуры.-Воронеж:Издательство Воронежского университета, 1980.- С. 22-23.

¹⁹Гулыга Е.В. О семантике предложения.-В кн.: Теоретические проблемы синтаксиса современных индоевропейских языков. –Л.: Наука,1975.- .С 27.

²⁰Черемисина М.И.Сложные предложения как знак языка.- В кн.: Синтаксис алтайских и европейских языков.- Новосибирск: Наука,1981.-С.5.

2. Bosh gapdagi atributiv bo‘laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga kesim va aniqlovchi ergash gaplar kiradi.

3. Bosh gapdagi atributiv-hol bo‘laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga sabab-natija, shart, to‘siqsiz, maqsad, payt, o‘xshatish va qiyoslash munosabatini ifodalovchi ergash gaplar kiradi²¹.

Qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning o‘zaro munosabati xususida N.Mahmudov shunday yozadi: “Ta’kidlash lozimki, voqealar o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlar benihoya murakkab va xilma-xildir. Bunday murakkab munosabatlarning ifodasi uchun, ayniqsa, ergash gapli qo‘shma gaplar qulay. Ammo qo‘shma gaplarning boshqa turlarida ham voqealar o‘rtasidagi munosabatlar ifodalanadi. Qiyoslang:

Bahor kelgach, gullar ochildi.// Bahor keldi va gullar ochildi.// Bahor keldi-gullar ochildi.

Bu gaplarning hammasi bir variativ sintaktik qatorni tashkil qiladi, ular uchun umumiy bo‘lgan mantiqiy-mazmuniy munosabat esa paytdan iborat. Bu qatordagi gaplar mazmunidagi voqea, albatta, “gullarning ochilishi”dir. Bahorning kelishi esa yordamchi voqea, lekin ular vaqt jihatiga ko‘ra o‘zaro munosabatga kirishgan. Bu vaqt munosabati esa ergash gapli qo‘shma gaplarda aniq ifodalangan”²². Ergash komponentli qo‘shma gaplar turkiy tillarda turlicha tasnif qilinadi: o‘n uch, o‘n to‘rt, ba’zilarida o‘n beshga bo‘lib o‘rganiladi. Bitta turkiy tilning o‘zida bu tasnifga har xil yondashish ham mavjud. Yana shuni aytish kerakki, ba’zi turkiy tillarda ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi ergash gaplar haqida gapirilib, “hol ergash gap” degan umumiy nom tilga olinmay, uning turlari o‘rganiladi. Shuni nazarda tutgan holda to‘ldiruvchi, aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gaplar bilan bir

²¹Баскаков А.Н. Предложение в современном турецком языке.- М.: Наука,1984.- С.5.

²² Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси.- Тошкент, “Фан”, 1992. 220-222-бетлар.

qatorda hol ergash gapli qo'shma gaplar va uning turlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir²³.

Endi ergash komponentli qo'shma gapning bir turi bo'lgan qiyoslash ergash gapli qo'shma gap haqida to'xtalamiz.

Ma'lumki, ergash komponentli qo'shma gaplar bosh va ergash gaplardan tarkib topadi. Ergash gap bosh gap bilan uzviy bog'liq bo'lib, uni biror jihatdan to'ldiradi, mazmuniga aniqlik kiritadi. Ko'p hollarda ergash va bosh gaplar ifoda etgan harakatlar shu qadar zich birikib ketgan bo'ladiki, ergash gapda ifoda etilgan harakat bajarilmasa, bosh gapda ifoda etiluvchi harakat yuz bermaydi. Bu jihatdan qarasaq, bosh gap harakatlanuvchi, reallashuvchi element bo'lsa, ergash gap uni harakatlantiruvchi vosita elementidir.

Ergash gaplar to'liq bo'lmasa ham, ma'lum ohang bilan bosh gapdan ajralib turishi kerak. Ergash gapdagi intonatsiya uni bosh gapdan ayirib turuvchi vositagina bo'lib qolmay, ergash gapda qanday mazmun ifodalanganini ko'rsatib turuvchi faktor ham sanaladi.

Ergashgan qo'shma gap komponentlarini biriktirishda ergashtiruvchi bog'lovchilar, fe'l formalari, yuklamalar, ko'makchilar, bog'lovchi so'zlar, ayrim kelishik qo'shimchalari, ba'zi so'z yasovchi affikslar, payt bildiruvchi otlar, intonatsiya va tartib biriktiruvchi vositalar vazifasini bajaradi.

O'zbek tilida ergashgan gaplarning bosh gapga birikish yo'li asosan ikki xildir:

- 1) bog'lovchili ergashish;
- 2) bog'lovchisiz ergashish.

Ergashgan qo'shma gap komponentlarini biriktirishda asosan ergashtiruvchili bog'lovchilar ishlatiladi. Lekin ayrim hollarda ergash gap bilan bosh gap oralarida

²³ Сайфуллаева Р. Эргашган қўшма гапнинг таснифи. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1989. 3-сон, 22- бет

teng bog‘lovchilar ham qo‘llanishi mumkin. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar ergashgan qo‘shma gap tarkibidagi vazifasiga ko‘ra uch turga ajraladi:

- 1) sof bog‘lovchilar;
- 2) bog‘lovchi-yuklamalar;
- 3) Bog‘lovchi so‘zlar.

Sof bog‘lovchilar hokim, tobe qismlarni bir-biriga bog‘laydi. Bunday bog‘lovchilarga –**ki** yuklamasini, **chunki**, **negaki**, **shekilli**, **go‘yo** kabi so‘zlarni kiritish mumkin.

Bog‘lovchi-yuklamalar esa ham bog‘lovchi, ham yuklama vazifasini bajaradi. Bular **agar**, **bordi-yu**, **basharti**, **mabodo**, **toki** so‘zlari.

Bog‘lovchi so‘zlar o‘z leksik ma‘nosini saqlagan holda qo‘shma gap qismlarini biriktiradi. Ular **demoq**, **bo‘lmoq** so‘zlaridir.

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar qo‘shma gapda teng bo‘lmagan komponentlarni bog‘lash uchun xizmat qiladi. Qiyoslash munosabatli ergashgan qo‘shma gaplarning ayrim turida ergash gap bosh gapdagi voqeani o‘xshatish yo‘li bilan izohlamay, uning darajasini belgilash uchun ham xizmat qiladi. Bunday qo‘shma gaplarda –**ki** va **go‘yo** yordamchilari birga ishlatilib, ergash gap bosh gapdagi darajani ko‘rsatuvchi **shuncha**, **shu qadar**, **shunday** kabi so‘zlarning ma‘nosini o‘xshatish yo‘li bilan izohlaydi:

Marjonoy qamoqxonada darvozasidan shunday yengil tortib chiqdiki, go‘yo hozirgina qorong‘u ko‘ringan olam to‘satdan yorishib ketdi (O.Yoqubov. Tanlangan asarlar, 4 jildlik, 154-b.).

Ergash gap bosh gapda kesim bo‘lib kelgan **shunday** so‘zini izohlasa, u faqat qiyoslash mazmunini bildiradi:

Ko‘rinishi shundayki, go‘yo gaqat ko‘zlari qolgan (“G‘uncha”, 2000, 6-son).

Bog'lovchi-yuklamalar o'z funksiyasiga ko'ra ham bog'lovchiga, ham yuklamalarga o'xshaydi.

Go'yo yordamchisi mazmunan qiyoslash yoki o'xshatish ma'nolari anglashilgan sodda va qo'shma gaplar tarkibida ishtirok etadi. Sodda gaplar tarkibida ko'proq yuklamalarga yaqin tursa, qo'shma gapdagi vazifasiga ko'ra bog'lovchi-yuklama sanaladi:

Marjonoy bu istarasi issiq qizni ko'rib dili ravshanlashdi, yuzi go'yo shu'la tushganday yorishib ketdi (O.Yoqubov. Tanlangan asarlar, 4 jildlik,145-b.).

*“Siz bu xotinni tekinga oldingiz, narxi 10 ming so'm edi”.*U go'yo hayvonning narxini belgilardi (M.Qo'qonboy. Tog' qizi, 239-bet).

Bu go'zal qizga ajib bir husn-u jamol baxsh etilgan bo'lib, chehrasi oq-tiniq, qosh-u ko'zlari qop-qora, sochlari xinorangga moyil edi. Go'yo tabiat bu qizchaning qosh- ko'ziga o'smarang berib, sochlaridan shu rangni qizg'ongan edi (M.Qo'qonboy. Tog' qizi, 25-bet).

Qozining uyiga mehmon kelsa, go'yo kuyov kelganday bo'lar edi (M.Qo'qonboy. Tog' qizi, 69-bet).

Eshikka orqa o'girib turgan joyidan burilib, eshik turqishidan tashqariga qaradi, qizini ko'rmoqchi bo'ldi. Go'yo kimdir tashqarida qizining qo'lidan torta-tort qilib, otga mingashtiib olib ketayotgandek bo'ldi (M.Qo'qonboy. Tog' qizi, 78-bet).

U oqsoqolning maqsadini tushundi-yu, o'zini bilmaganga soldi, go'yo oqsoqolning gapini eshitishga muntazirday qilib ko'rsatdi o'zini (M.Qo'qonboy. Tog' qizi, 60-bet).

O'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarda o'xshatish ma'nosini kuchliroq qilib, bo'rttirib ko'rsatish maqsadida **go'yo** yordamchisini olgan ergash gap bosh gapdan oldin keltiriladi, bu gapning kesimi ham –**ganday** yordamchisini olgan bo'ladi:

Go‘yo u kutgan gaplar satrlar orasiga yashiringanday, Burgut xatni qayta o‘qidi (O.Yoqubov. Tanlangan asarlar, 4 jildlik,162-b.).

Xuddi yordamchisi ham o‘xshatish, voqea-hodisaning yuzaga kelishiga bir oz ishonchsizlik bilan qarash ma’nolarini bildiradi. Bu so‘z ishtirok etgan gaplarning kesimlari ham ko‘pincha –ganday affiksini olib, bosh gapga bog‘lanib keladi:

Hammalari bu qismatdan, xuddi balo zanjiriga tushganday, qutula olmadilar (O‘zbek xalq ertaklari, 160-b.).

Mohzoda u bilan yig‘lab xayrlashayotganda qanday turgan bo‘lsa, hozir ham xuddi shinday yig‘lab unga termulayotganday bo‘ldi (M.Qo‘qonboy. Tog‘ qizi, 243-bet).

Dadam qadahni yarimlatdi-yu, xuddi pashsha qo‘riyotganday, uh-uhlab og‘zini yelpidi (S.Siyoyev. Yaxshilarga yondoshdim, 56-bet).

O‘zbek tilida qo‘shma gap qismlarini biriktirishda bog‘lovchi so‘zlar muhim rol o‘ynaydi. Bo‘lmoq fe’li deyarli hamma so‘z turkumlari bilan qo‘shilib kelib, ergash gapning tarkibli kesimida keladi va shu ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi grammatik vosita vazifasini bajaradi:

Hamma nima bo‘lsa, biz ham shu (O‘zbek xalq ertaklari, 97-b.).

O‘zbek tili turkiy tillar sistemasida ayrim tillardan qo‘shma gap qismlarining bog‘lovchisiz birikishi yo‘li ustunligi bilan farq qiladi. Haqiqatan ham, o‘zbek tilida ko‘pgina ergash gaplar bosh gapga bog‘lovchisiz – fe’lning turli formalari, ko‘makchilar, yuklamalar, payt bildiruvchi otlar yoki ravishlar, o‘rin kelishigi qo‘shimchasi, nisbiy so‘zlar, ohang va boshqa shunga o‘xshash yo‘llar bilan birikadi. Ergash gaplarni bosh gaplarga biriktiruvchi grammatik vositalar qo‘llanishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1) boshqa vositalar bilan kelmay, yolg‘iz o‘zi biriktirish vazifasini bajararuvchi

asosiy yordamchilar. Bu guruhga ravishdosh, sifatdoshning bo‘lishli-bo‘lishsiz shakli, shart fe’li kabi vositalar kiradi;

2) boshqa vositalar bilan birga kelib, biriktiruvchi vosita vazifasini bajaruvchi yordamchilar. Bu guruhga sifatdosh, ko‘makchilar, kelishik qo‘shimchalari, nisbiy so‘zlar va shunga o‘xshash biriktiruvchi vositalar kiradi.

Chog‘ishtirish va o‘xshatish ergash gaplari **–gan+dan ko‘ra, -ganidek, -gani kabi** yordamchilarini olib bosh gapga bog‘lanadi:

Yaltiroq mebelda o‘zining xira basharasi aks etib turganday, yana yuragi siqildi (O‘.Usmonov. Girdob, 343-b.).

Tiz cho‘kib yashagandan ko‘ra, tik turib o‘lmoq afzal (Maqol).

Qiyoslash mazmunini ifodalagan ergash gapli qo‘shma gaplarning qismlari – **guncha** affiksini olgan ravishdosh orqali birikadi. Bunday qo‘shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisani chog‘ishtirish, taqqoslash uchun qo‘llanadi yoki voqealardan qaysi biri afzal ekanligini bildiradi:

Dalalarda yovvoyi o‘tlar o‘sguncha, gullar o‘ssin.

Chog‘ishtirish ergash gaplar tarkibida kesim bo‘lib kelgan ravishdoshning – guncha affiksi orasida gapning egasi bilan mos bo‘lgan egalik affikslari ishlatilmaydi. Ergash gaplarning kesimi egalik affiksisiz –guncha shaklida qo‘llanadi.

Fe’lning shart mayli formasi ergash gaplarning kesimi bo‘lib kelib, ergash gapni bosh gapga bog‘lash uchun xizmat qiladi va turli ma’nolarni ifodalaydi.

Ergash gap o‘xshatish bilan bog‘liq bo‘lgan faraz va iltimos ma’nolarini bildiradi:

U hozir shunday sokinlikni istayotgan ediki, hatto pashsha ham uchmasa (“G‘uncha”, 2000, 4-son).

Shart mayli formasi qiyoslash mazmunidagi ergash gaplarni bosh gaplarga bog‘laganda, turli gap bo‘laklarini taqqoslaydi:

a) har ikki komponentdagi egani taqqoslaydi:

O‘zimni kasalga soldim: onam turli pishiriqlar tashisa, singlim tez-tez choyimni yangilardi (“G‘uncha”, 2000, 4-son).

b) to‘ldiruvchi qiyoslanadi:

Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko‘r (Maqol)

c) hollar qiyoslanadi:

Dunyo qiziq ekan: avvallari qirq kunda qaytsa, hozir qirq soatga ham yetmaydi (“Bekajon” gazetasi).

Kabi, singari ko‘makchilari o‘xshatish ergash gapli qo‘shma gapda o‘tgan zamon sifatdoshi orqali ifodalangan ergash gapning kesimidan keyin kelib, bosh gapdagi voqeani o‘xshatish orqali izohlaydi:

Oqbadan terak jismiga o‘yib yozilgan ismlarimizni yillar o‘tib o‘chirgani kabi, ularni yuraklar ham o‘chirmadimikan? (“Bekajon” gazetasi).

Qanday- shunday so‘zlari o‘lchov-daraja ergash gapli qo‘shma gaplar tarkibida ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi grammatik vosita qatorida ishlatilib, har ikki komponentda ham kesimga tobe bo‘lib keladi. Bunday qo‘shma gaplarda voqealarning o‘lchovi, darajasi o‘xshatish va chog‘ishtirish bilan bog‘lab ko‘rsatiladi:

Qariganlarida ota-onangga qanday muomala qilsang, senga ham bir kuni shunday javob qaytadi (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo, 25-b.).

Qancha-shuncha so‘zlari.

Bolaga qancha ko‘p tanbeh bersang, eti shuncha qotadi (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo, 9-b.).

Ergash gap bosh gapning biror bo'lagini izohlaydi. Agar bosh gapdagi izohlanuvchi bo'lak ifodalanmasa, ergash gap bosh gapni butunicha izohlaydi. Butunicha izohlash bosh gap mazmunini ochish uchun beriladigan savoldan sezilib turadi. Aytish kerakki, qiyoslash munosabatining tabiati ikki xil, ya'ni farqni ko'rsatish va o'xshashlikni ko'rsatish.

Qiyoslash munosabatli ergash gapli qo'shma gaplar deb, bosh gapdan anglashiladigan mazmun ergash gap mazmuni bilan qiyos qilinadigan qo'shma gapga aytiladi. Mazkur qo'shma gaplarning shakllanishi shart maylidagi fe'l shakli, nisbiy so'zlar, shuningdek, ravishdosh va sifatdoshning ayrim shakllari bilan bog'liq bo'ladi. Quyida ana shu grammatik vositalar orqali shakllangan qiyoslash ergash gapli qo'shma gaplarning har biriga alohida to'xtalamiz.

1.1.Qo‘shimchalar yordamida qiyoslash mazmunini ifodalash

Qiyoslash ergash gaplari ko‘pincha bosh gapdagi ayrim bo‘laklarni ergash gapdagi bo‘laklar bilan qiyoslaydi, taqqoslaydi. Har ikki komponentdagi egani, to‘ldiruvchini, holni yoki boshqa bo‘laklarni chog‘ishtiradi.

Bunday ergash gaplar bosh gap bilan fe‘lning shart formasi orqali birikadi. Qo‘shma gap yasalishiga ergash gapning shart maylidagi kesimi vosita bo‘ladi. Bunda, albatta, qo‘shma gap tarkibiy qismlari mazmunan qiyosiy tusda bo‘ladi:

1. *U ahmoq bo‘lsa, sen aqlli bo‘l!* (M.Murodov. Gunoh,214-b.).
2. *Sen uni ovozidan tanisang, men qadamidan bilaman* (M.Alovuddinov. Qashqir izidan, 89-b.).

Bunday qo‘shma gaplarning har ikki qismida ifodalangan voqea, hodisalar real bo‘ladi. Birinchi misoldagi qo‘shma gap tarkibida **u** va **sen**, ya’ni subyektlar o‘zaro qiyoslangan. Shu bilan birga **ahmoq** va **aqlli**- semantik jihatdan bir-biriga qarama-qarshi ma’noni ifodalagan leksik birliklar ham qiyos ma’nosini yuzaga keltirgan. Bu gapda **u** va **sen** amalga oshirayotgan faoliyatning bir-biriga zid ekanligi ifodalangan.

Vaqtı – soati yetganda odamning tug‘ilishi oddiy bir narsa bo‘lib ko‘rinsa, o‘lim har doim g‘ayritabiiy hodisa bo‘lib tuyuladi (O‘.Hoshimov. Nur borki, soya bor).

Bu gap tarkibida **tug‘ilish** va **o‘lim** o‘zaro qiyoslangan. Shu bilan birga **oddiy narsa** va **g‘ayritabiiy hodisa** birikmalari ham qiyos ma’nosini yuzaga keltirgan. Ikkala soda gap tarkibidagi amalga oshirilayotgan faoliyat esa zidlikni ham ifodalaydi.

Nigohi Bulutning yo‘liga qadalgan Lolaga Oymoma boshini silab nasihat qilgan bo‘lsa, Quyosh Bulutning nomini eshitib-la “U axir sayoq-ku!” deb jerkidi (O‘.Hoshimov. Nur borki, soya bor).

Bu misolda ham yuqoridagi holatlarni kuzatish mumkin. Qiyoslash-o'xshatish mazmunidagi ergash gaplarning sintaktik shakllanishiga tobe gapning sifatdash shaklidagi kesimiga **-dek, -day** qo'shimchalari vosita bo'ladi. Bunday holda u bosh gapdan oldin, keyin yoki uning o'rtasida kelishi ham mumkin:

Bobosi oqqoshshoning zulmidan qo'rqib yashaganday, otasi sho'ronong zulmidan qo'rqib yashardi (N.Jaloliddin. Erkagi bor uy, 36-b.).

Ular bir-birlarining ko'zlariga uzoq tikilishdi, ularning tubiga cho'ka boshlagandek (N.Jaloliddin. Erkagi bor uy, 72-b.).

Og'riqni unutish uchun tovoniga musht tushirib so'kindi, hammasiga oyoqlari aybdordek (N.Jaloliddin. Erkagi bor uy, 78-b.).

Dadam bilan indamay ketyapmiz, bir-birimizga aytadigan gapimiz yo'qday (S.Siyoyev. Yaxshilarga yondoshdim, 55-bet).

Qiyoslash ottenkasi kesimlari **-may, -guncha** qo'shimchalarini olgan konstruksiyalarda ham anglashiladi. Ravishdoshning –guncha qo'shimchasi shakli orqali birikkan voqeaning qaysisi afzal ekanligi, qiyoslanayotgan predmetlarning qaysi biri yaxshi ekani ko'rsatiladi. Ravishdoshning –may qo'shimchasini olgan gaplarning bir qismida qiyoslash ma'nosi, ikkinchi qismida salbiy istak ifodalangan bo'lib, bunday konstruksiyalar ko'proq jonli tilda uchraydi:

- *Onang o'lsin, senga shunaqa tarbiya bermay!* (M.Murodov. Gunoh, 131-b.).

- *Bizga shuncha g'alva orttirmay, qurib ket!* (M.Murodov. Gunoh, 21-b.)

Tiz cho'kib yashagunchha, tik turib o'lgan afzal (Maqol).

Yigitning boshi egilguncha, ho'kizning shoxi sinsin (Maqol).

Vatanning bir siqim tuprog'i fashist itvachchalari oyog'i ostida murdor bo'lishini ko'rguncha, bu ko'zlar ko'r bo'lgani yaxshi (M.Alovuddin. Qashqir izidan, 57-b.)

1.2.Yordamchi so‘zlar vositasida qiyoslash mazmunini ifodalash

Qiyoslash mazmunini ifodalagan qo‘shma gaplarning sintaktik shakllanishi ayrim yordamchi so‘zlar vositasida ham amalga oshiriladi. Bunday ergash gaplar bosh gap bilan **go‘yo, go‘yoki, xuddi, -gani singari, -ganiga o‘xshash, -gandan ko‘ra** yordamchilari orqali birikadi.

Ergash gapning **–gandan ko‘ra** tarzidagi sifatdosh va ko‘makchi orqali shakllangan kesimi vositasida:

Uni aldab ishonchini qozongandan ko‘ra, bor haqiqatni ochib tashlagan yaxshi (O.Yoqubov. Muqaddas, 204-b.).

Muqaddasdan judo bo‘lgandan ko‘ra, bu xatoni vaqtida tuzatganim ma’qul (O.Yoqubov. Muqaddas, 253-b.).

Kimningdir o‘rniga kirib o‘qigandan ko‘ra, bir umr oddiy ishchi bo‘lganim afzal (O.Yoqubov. Muqaddas, 267-b.).

Ergash gapli qo‘shma gaplarning sintaktik shakli bosh gapdagi **–ki** bog‘lovchisi va ergash gapdagi **go‘yo, go‘yoki, xuddi** yuklamalariga bog‘liq bo‘lganda esa, o‘xshatish ma’nosi kuchaytiriladi:

Bu ovoz shunday mayin va yoqimli ediki, go‘yo yuzinga tog‘ shabadasi urilganday bo‘ldi (O.Yoqubov. Tanlangan asarlar, 1-jild, 182-b.)

Shu topda men shunday bir ahvolda edimki, go‘yo miyamda bir nur “yarq” etgandek bo‘ldi (O.Yoqubov. Tanlangan asarlar, 1-jild, 183-b.)

Nima qilishimni bilmasdan ko‘kka shunday tikildimki, xuddi osmonda bir narsa bordek (O.Yoqubov. Muqaddas, 187-b.).

U yuzimga shunday sinovchan nazar bilan tikildiki, go‘yo meni birinchi marta ko‘rayotganga o‘xshardi (O.Yoqubov. Muqaddas, 192-b.).

Xuddi tunov kungidek menga yana shunday tuyuldiki, go‘yo u buni birdan gapirib qolishimdan qo‘rqar edi (O.Yoqubov. Muqaddas, 207-b.).

U go‘daklikdan tahqir-u tarsaki ko‘rib katta bo‘lgandi. Go‘yoki uning loyi qo‘rquv va vahimaga qorilgan bo‘lib, unda qarshilik ko‘rsatish va e‘tiroz qilish tuyg‘usi o‘lgan edi (M.Qo‘qonboy. Tog‘ qizi, 249-bet).

Azimboy biror nima deyishga holi bo‘lmay, qaltirab har uchala miltiqliga mo‘ltirab qarardi, go‘yo ko‘zlari bilan rahm-shafqat tildirdi (M.Qo‘qonboy. Tog‘ qizi, 256-bet).

Xotin erining oldida doim qo‘rquvdan titrab turadi, eri go‘yo tepong‘ich ot yoki shoxlaydigan ho‘kizdek (M.Qo‘qonboy. Tog‘ qizi, 265-bet).

Keltirilgan misollardagi ergash gapli qo‘shma gaplarning yasalishi birinchi galda –ki bog‘lovchisi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan go‘yo, go‘yoki, xuddi yuklamalari bilan ham aloqador. Chunki bu yuklamalar o‘xshatish mazmunini ta’kidlashdan tashqari, bog‘lovchi vosita vazifasini ham bajarmoqda. Biroq ular tobe gap kesimi “**sifatdosh + -day,-dek**” yoki “**sifatdosh +kabi, singari**” tarzida berilgan qo‘shma gaplarda ishtirok etganda, o‘xshatish mazmunini ta’kidlovchi omil hisoblanadi, xolos.

To‘lagan, xuddi o‘sha paytga yetib borishni ko‘zlaganday, avtobusga qarab yugurdi. (O.Yoqubov. Muqaddas, 200-b.).

Ayni paytda yuklama yordamisiz ham bemalol qo‘shma gap yasalishi mumkin:

To‘lagan, o‘sha paytga yetib borishni ko‘zlaganday, avtobusga qarab yugurdi.

Ba‘zan qo‘shma gap komponentlari –ki, go‘yo, -ganday yordamchilarining har uchalasi ishtirok etishi orqali birikadilar: **-ki** yordamchisi bosh gapning kesimidan keyin, **go‘yo** so‘zi ergash gap oldidan, **-ganday** esa ergash gapning kesimi sostavida keladi:

Tomirlarimga shu qadar qon yugurdiki, go‘yo birdan ko‘z oldimni to‘sib kelgan qora bulut tarqalganday, hamma yoq nurga cho‘mganday tuyuldi (O.Yoqubov. Muqaddas, 217-b.).

Oltinoy o‘zini shunday tutardiki, go‘yo allaqachon bu oilaga kelin bo‘lib tushganday, qaynotasiga motam tutayotganday (O.Yoqubov. Adolat manzili, 173-b.).

Ergash gap –**gan(i)+kabi, singari, -ganga o‘xshab** yordamchilari bilan shakllanadi:

Qaysi bir dono shoir aytganga o‘xshab, muhabbat yosh tanlamas ekan (O.Yoqubov. Adolat manzili, 20-b.).

Dunyoga ustun bo‘ladigan kabi, tipirchilashing olamni tutadi-ya! (O‘.Hoshimov. Nur borki, soya bor).

-gandan ko‘ra yordamchisini olgan ergash gaplarning kesimi ko‘pincha bir xil so‘z bilan ifodalanadi. Bu qiyoslash ergash gaplar bosh gapdan oldin keladi:

Gapirib pushaymon yegandan ko‘ra, gapirmay dog‘da qol (Maqol).

Kunda-kunda o‘lgandan ko‘ra, bir yo‘la o‘lgan yaxshi (O‘.Hoshimov. Nur borki, soya bor).

Bu masalani sinf muhokamasiga qo‘ygandan ko‘ra, uzr so‘rab qo‘ya qol (“G‘uncha”, 2000, 4-son).

Ayrim o‘xshatish ergash gaplarda real bo‘lmagan, hatto yuzaga kelishi mumkin bo‘lmagan- faraz qilish ottenkalari ifodalanadi:

Sohilda turar qoya, go‘yo sohibjamol qiz

Yellar aytib hikoya, cho‘miltiradi dengiz.

Misralarda so‘zlar gavhar kabi yonadi, go‘yo yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi (Oybek. Navoiy).

Anvar bu xabardan juda quvondi, go‘yo birinchi qaldirg‘och parvozini ko‘rgan edi (“G‘uncha”, 2000, 6-son).

Qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar ba‘zan bosh gapning o‘rtasida kelib, kirish konstruksiyalariga yaqin vazifani bajaradi:

Onaxon, issiq yelkasiga birov muzdek qo‘lini bosgandek, seskanib tushdi
(A.Muxtor. Opa-singillar).

Bola, bir xum tilla topgandek, bu xonadondan ko‘ngil uzolmasdi
(“G‘uncha”, 2000, 3-son).

Juma, oqsoqolning gaplari boshiga xarsang toshday yog‘ilayotgandek, betoqat bo‘lardi (M.Qo‘qonboy. Tog‘ qizi, 80-bet).

Bu gaplar, go‘yo bir bigiz ediki, uning yuragiga chuqurroq botardi
(M.Qo‘qonboy. Tog‘ qizi, 80-bet).

1.3 Nisbiy soʻzlar vositasida qiyoslash mazmunini ifodalash

Nisbiy soʻzlar ham ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi Grammatik vositalarning biri boʻlib, u koʻpgina ergash gaplarni bosh gapga bpgʻlash vazifasini bajaradi.

Nisbiy soʻzlar koʻpincha feʻlning shart mayli formasi yoki shu funksiyadagi yordamchilar orqali birikadigan ergashgan qoʻshma gaplar tarkibida qoʻllanadi. Nisbiy soʻzlar qoshma gapning har ikki komponentida qoʻllanadi. Oldingi komponentda ular soʻroq xarakterida boʻladi, keying komponentda javob tarzida yoki koʻrsatish uchun qoʻllanadi.

Qoʻshma gap yasalishiga ergash gap tarkibidagi **qanday, qanaqa** va bosh gap tarkibidagi **shunday, shunaqa** nisbiy soʻzlari hamda ergash gapning shart maylidagi kesimi vosita boʻladi:

Kimga qanday zulm qilsang, shunday javob olasan (Oʻzbek xalq ertaklari,9-b.).

Uni qopga qanday joylashtirgan boʻlsang, shunday chiqarib olasan (Oʻzbek xalq ertaklari,11-b.).

Nisbiy soʻzlar har ikki komponentdagi **hol+kesim** birikmasini butunicha izohlaydi:

Oʻrmon aholisi qanday qiynalib yashayotgan boʻlsa, sen ham xuddi shunday yashaysan (Oʻzbek xalq ertaklari,29-b.).

Oldingi qismdagi nisbiy soʻzlar koʻpincha soʻroq olmoshlari bilan ifodalansa, keyingi komponentda koʻrsatish olmoshlari bilan ifodalanadi:

Uni koʻrganda sen qanday sevinsang, men ham shunday xursand boʻlaman (“Gʻuncha”,2000, 4-son).

Koʻp vaqt nisbiy soʻzlar bir xil kelishik qoʻshimchalarini olib, bir-biriga moslashib keladi:

Qassob pichog 'ini qanday ishlatsa, u qalamni shunday ishlatardi
(“G‘uncha”,2000, 6-son).

Nisbiy so‘zlar mos holda yoki moslashmay kelishidan qat’i nazar, u bosh gapdagi ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan yoki shu so‘z bilan birga kelgan bo‘lakni izohlaydi.

Bu bolani olib ketish biz uchun qanday og‘ir bo‘lsa, uni birovga qoldirib ketish ham shunday og‘ir (S.Abdulla. Mavlono Muqimiy, 128-b.).

Demak, nisbiy so‘zlar ham ergashgan gap komponentlarini biriktiruvchi asosiy grammatik vositalardan biri sanaladi. Nisbiy so‘zlarning ishlatilishini xuddi taroziga o‘xshatish mumkin. Taroziyning shayini fe‘lning shart formasi hisoblansa, uning ikki pallasi nisbiy so‘zlardir. Chunki nisbiy so‘zlar deyarli hamma vaqt biri ikkinchisiga mos holda qo‘llanadi:

Bu yerda sen qanday martabaga ega bo‘lsang, u ham shunday hurmatga loyiq
(O‘zbek xalq ertaklari,31-b.).

Ergashgan qo‘shma gapning deyarli hamma turi xilma-xil sinonim variantlar bilan berilishi mumkin. Ergashgan qo‘shma gaplar turli sinonim variantlar bilan almashinishi natijasida soda gapga aylanish yoki biriktiruvchi vositalar almashinib qo‘shma gapligicha qolishi mumkin.

Chog‘ishtirish ergash gaplarning ko‘pi boshqa sintaktik sinonimlar bilan berilmay, ayrim turlarigina boshqa xil konstruksiyalar bilan almashinib qo‘llanishi mumkin:

Yaxshilik obro‘ keltirsa, yomonlik zulmatga olib boradi (Maqol).

Mehnat bilan har kishi murodiga yetsa, dangasalik uni halokatga yetaklaydi
(“G‘uncha”,2000, 6-son).

Yuqoridagi qo‘shma gaplarni bog‘langan qo‘shma gap holida berish mumkin:

Yaxshilik obro‘ keltiradi, yomonlik esa zulmatga olib boradi.

Mehnat bilan har kishi murodiga yetadi, dangasalik bo'lsa uni halokatga yetaklaydi.

Qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplar shu xilda – bog'langan qo'shma gaplarday berilsa ham undagi qiyoslash ottenkasi saqlangan bo'ladi. Bu ergash gaplardagi –sa o'rnida -gan +da yordamchisini qo'yib payt ergash gap shaklida berish mumkin:

Echkini shamol uchirsa, tuyani osmonda ko'r // Echkini shamol uchirganda, tuyani osmonda ko'r (Maqol).

Lekin bunda qiyoslash mazmuni ancha kuchsizlanib ketadi.

Qiyoslash ergash gaplari tarkibida **agar** yordamchisi ishtirok etgan bo'lsa, u gapda qoyoslash mazmuni bilan birga shart mazmuni ham ifodalangani uchun bog'langan qo'shma gap shaklida qo'llab bo'lmaydi:

Agar dunyoda sevgidan bahramand bo'lishdan ortiqroq baxt yo'q bo'lsa, uning g'amiga yo'liqishdan og'irroq jazo ham yo'q (“Tafakkur gulshani”).

-guncha, -gan+dan ko'ra yordamchilari qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplar tarkibida deyarli bir xil funksiyada ishlatilgani uchun birining o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkin:

Gapirib pushaymon yeguncha, gapirmay dog'da qol // Gapirib pushaymon yegandan ko'ra, gapirmay dog'da qol.

Ba'zan **–gan+dan ko'ra** yordamchisi tarkibidagi **ko'ra** qo'llanmay ergash gap bosh gapga –gan+dan yordamchisining o'zi bilan birikadi:

Gapirib pushaymon yegandan, gapirmay dog'da qol.

Ma'lumki, bu yordamchi sabab ergash gapni ham bosh gapga biriktirib keladi. Bu xilda ikki ergash gapda ishlatilganda uning intonatsiyasi bir-biridan farq qiladi. Qiyoslash yoki sabab ergash gap ekanligi mazmundan, kesimlardagi intonatsiyadan ko'rinib turadi. Qiyoslash ergash gapning kesimi kuchliroq, ajratib

aytiladi; intonatsiyadan shu o‘rinda **ko‘ra** yordamchisi bo‘lishi lozimligi sezilib turadi. Sabab ergash gaplarning kesimi kuchsizroq intonatsiya bilan aytiladi.

Aybingni bila turib indamay turgandan, yuzingga solishgani ham tuzuk ekan
(O‘.Usmonov. Girdob).

Odam bir kecha tunab o‘tganidan, g‘orga ham fayz kiribdi (S.Ahmad. Ufq).

Qiyoslash ergash gaplari soda gap holida ham qo‘llanishi mumkin. Bunday gaplarda **yaxshi, durust, ma‘qul** kabi so‘zlar qo‘shib ishlatiladi.

Pinhona iztirob chekkandan ko‘ra, oshkora yig‘lash kerak // Pinhona iztirob chekkandan ko‘ra, oshkora yig‘lagan yaxshi.

Tarkibida **–ki** yordamchisi kelgan o‘xshatish ergash gapli qo‘shma gap komponentlarining tartibi o‘zgarib, ergash gap oldin, bosh gap keyin keladi. Bosh gapdagi **shunday** so‘zi va **–ki** yordamchisi qo‘llanmaydi:

Xonaga shunday jimlik cho‘kkanki, go‘yo bu yerda hayot yo‘q deysiz // bu yerda go‘yo hayot yo‘qday xonaga jimlik cho‘kkan.

Komponentlarning kesimlari bir xil yoki bir-biriga ma‘no jihatdan yaqin bo‘lib, ular **–gan+dek** yordamchilari orqali birikkan bo‘lsa, uyushiq bo‘lakli soda gap holida berish mumkin:

Bu tog‘lar bag‘rida yer qa‘ridan qaynab chiqayotgan buloqlar bo‘lganidek, quyuq archazorlar ham bor edi // Bu tog‘lar bag‘rida yer qa‘ridan qaynab chiqayotgan buloqlar va quyuq archazorlar ham bor edi.(O.Husanov. Tog‘da o‘sgan bola).

Ergash gaplar **–gan+day** yordamchisi orqali bosh gapga birikishi, undan oldin kelsa, **-gan(i)+kabi (singari), -gan+ga o‘xshab** kabi yordamchilar bilan almashib kelishi va ba‘zan bosh gapning ichida kelishi mumkin:

Ukalarim bezovta bo'lmasin deganday, To'ng'ich botir to'qayga qochdi // To'ng'ich botir ukalarim bezovta bo'lmasin deganday (degan kabi) to'qayga qochdi (O'zbek xalq ertaklari).

O'xshatish munosabatli ergash gaplar ko'pincha boshqa qoshma gaplardagiday bosh gap ichiga kiradi:

Gul barglari, qo'lingga tutib qolishdan qo'rqqanday, tinmay uchishadi ("G'uncha", 2000,4-son).

Iste'dodsiz odamlar, o'z ajdodlarining xizmatini o'zining baxt-saodatiga aylantirganday, hunar egalariga ko'p zarar yetkazadilar (Tafakkur gulshani,62-b.).

Komponentlar mazmunan bir-biriga zid bo'lib, qiyoslansa yoki o'xshatilsa, unday qo'shma gaplarni boshqa xil sintaktik sinonimlar bilan berish qiyin:

Ishning muvaffaqiyatli tugashi yordamchilarning ko'pligida bo'lmaganidek, hunar egalarining mansabiga ham bog'liq emas (Tafakkur gulshani, 63-b.).

O'zgalarni baxtsiz qilib baxtga erishib bo'lmaganidek, zahmat chekmasdan ilmga ham yetish mumkin emas (Tafakkur gulshani, 76-b.).

Ichak-qorin go'sht bo'lmaganidek, dushman ham aslo do'st bo'lmas ekan (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo, 205-b.).

II BOB

Qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gap tiplari

Biz birinchi bobda ergash gapdagi mazmunga qiyoslash orqali bosh gap mazmunining ochilishini ko‘rdik. Bunday hollarda ergash gaplar bosh gapdan anglashilgan hatakat, holat, balgi-xususiyatni boshqa bir voqea, hodisa, belgi-xususiyatlarga qiyoslash, o‘xshatish orqali ifodalashi mumkinligining guvohi bo‘ldik:

Quyoshning jamoli yer yuzini yoritganligi va hayotga abadiy umr bag‘ishlagani kabi, ilm ham qalblarni nur bilan yoritadi (Tafakkur gulshani,79-b.).

Ipak qurti ko‘p ipak o‘rab o‘z qo‘l-oyog‘ini qattiq bog‘laganiday, bu dunyoga berilgan odam ham o‘z najot yo‘lini qiyinlashtiradi (Tafakkur gulshani,78-b.).

It quruq suyakdan qancha sevinsa, aqlli odam unga berilgan kichik bir in’omdan shuncha qanoatlanadi (Tafakkur gulshani,63-b.).

Qiyoslash mazmunidagi ergash gaplarda bosh gapning mazmuni boshqa bir voqea hodisaga qiyoslanishi, qarama-qarshi qo‘yilishi yoki ular bosh gapdan anglashilgan harakat, holatning darajasini izohlashi mumkin.

Bosh gapning bu xususiyatlari ergash gapdan anglashilgan mazmunga qiyoslanish orqali ochiladi.

Qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar mazmunan quyidagi tiplarga bo‘linadi:

1. Chog‘ishtirish mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar.
2. O‘xshatish mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar.
3. Miqdor-daraja ma’nosini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar.

2.1. Chog‘ishtirish mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar

Bu tipdagi ergashgan qo‘shma gaplarda bosh gapdan anglashilgan belgi-xususiyat ergash gapdagi mazmunga qiyoslash chog‘ishtirish orqali ifodalanadi. Bu tipdagi ergash gaplar bosh gapga quyidagi yo‘llar bilan bog‘lanadi:

1. Ergash gapning kesimi shart fe‘li formasida bo‘lib, ergash gap tarkibida qanday, bosh gap tarkibida shunday olmoshlari mavjud bo‘ladi:

Iste‘dodli va qobiliyatli odamlar past martabadan baland martabaga qanday chiqib olsalar, irodasi zaif, aqli kam bo‘lganlar yuksak mavqedan shunday pastga tushib ketadilar (Tafakkur gulshani, 49-b.).

Quruqlikda kemadan qanday foydalanib bo‘lmasa, dengizda ham otdan shunday foydalanib bo‘lmaydi (Tafakkur gulshani, 35-b.).

Bu tipdagi ergash gaplar ayrim hollarda zidlik ma‘nosini ifodalaydi:

Sen qanchalik muruvvatli va oliyjanob bo‘lsang, u shunchalik kaltafahm ekan (O‘zbek xalq ertaklari, 113-b.).

Aziza undan naqadar uzoqlashishga harakat qilsa, Gulchiroy shu qadar yaqinlashmoqchi bo‘lardi (“G‘uncha” 2000, 6-son).

2. Ergash gap bosh gapga –sa qo‘shimchasi orqali bog‘lanadi:

Yulduzlar quyoshdan nur olsa, biz ustozdan o‘rnak olamiz (“G‘uncha” 2000, 6-son).

Lolalar adirlarga qip-qizil gilam yoysa, chuchmomalar shu gilamga naqhs bo‘lib tushadi (“G‘uncha” 2000, 6-son).

O‘ta semizlik odamni qiynasa, o‘ta ozg‘inlik ham sillani quritadi (“Bekajon” gazetasi).

Chog'ishtirish mazmunidagi ergash gaplarning kesimi ot-kesim bo'lganda, shart fe'li formasidagi **bo'lmoq** fe'li bilan birikadi:

Bu dunyoda odamlar bir-biriga mahram bo'lsa, do'stlik yo'lida o'z aziz jonlarini ham ayamaydilar (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo, 23-b.).

Mehmon hayotning achchiq-chuchugini totgan, yaxshi-yomonni ko'rgan odam bo'lsa, Zohid uning aksi edi ("Bekajon" gazetasi).

Mol-dunyo qo'lning kiri bo'lsa, hunar va san'at tuganmas xazinadir (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo, 126-b.).

Maqollarning mustaqil folklor janri sifatida o'ziga xos xususiyati bo'lsa, matallar ham qat'iy, lo'nda xulosa ifodalaydi (Maqollar, 16-b.).

3. To'liqsiz fe'l bilan birikkan sifatdosh yordamida bog'lanadi:

U odamlarning mushkulini oson qilishga harakat qilayotgan ekan, sen ham bir og'iz shirin so'z bilan ko'nglini ko'tarishing kerak edi (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo, 24-b.).

Kichikligida chumchuqqa tosh otayotgan ekan, katta bo'lganda odam o'q otishi ham mumkin (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo, 13-b.).

4. **Ko'ra** ko'makchisi, chiqish kelishigini olgan sifatdosh yoki **–guncha** bilan shakllangan ravishdosh orqali bog'lanadi:

Avvalini berguncha, oxirini bersin (Maqollar, 42-b.).

Begonaning oti o'zguncha, ovuldoshning toyi o'zsin (Maqollar, 70-b.).

Bekor o'tirgandan, bekor ishla (Maqollar, 72-b.).

Dehqonning ho'kizi kasal bo'lgandan ko'ra, o'zi kasal bo'lsin (Maqollar, 42-b.).

Dushmanning o'limini tilagandan ko'ra, joningning sog'lig'ini tila (Maqollar, 138-b.).

Yolgʻonchining shahrida shoh boʻlguncha, rostgoʻyning chorbogʻida giyoh boʻl
(Maqollar, 161-b.).

Ilon boʻlib yashagandan, yilqi boʻlib kishnagan yaxshi (Maqollar, 197-b.).

5. **-dek, -day** qoʻshimchasini olgan sifatdosh orqali bogʻlanadi:

Baliq suv bilan tirik boʻlganidek, odam el bilan tirik (Maqollar, 64-b.).

2.2.O‘xshatish mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar

O‘xshatish mazmunidagi ergash gap o‘xshatish, qiyoslash, tenglik ma’nolarini ifodalab keladi. Bu holatda ergash gap real bo‘lgan voqea-hodisalarni va real bo‘lmagan xayoliy hodisalarni anglatishi mumkin. O‘xshatish ergash gaplar bosh gapga ma’lum untonatsiya yordami bilan bog‘lanadi. Bunda ergash gapning kesimi quyidagicha bo‘ladi:

1. Ergash gapning kesimi **–day, –dek** qo‘shimchasini olgan sifatdoshlar bilan ifodalanadi. Mazmun talabi bilan bu turdagi ergash gaplar bosh gapdan oldin, uning orasida yoki undan so‘ng kelishi mumkin:

Go‘sh t suyaksiz bo‘lmaganday, sholi ham kurmaksiz bo‘lmaydi (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo, 120-b.).

Umrzoqov, go‘yo o‘zi Marjonoy oldida gunohkorday, nigohini Marjonoyning iltijoli nigohidan olib qochdi (O.Yoqubov. Adolat manzili, 85-b.).

Har safar (so‘nggi paytlarda, ayniqsa) Marjonoy bu istarasi issiqqina, uyatchan qizni ko‘rganida dili o‘z-o‘zidan, go‘yo shu‘la tushganday, yorishib ketardi (O.Yoqubov. Adolat manzili, 145-b.).

Singlim, bizning ham ahvolimiz og‘ir, go‘yo biz shu mahalgacha hamma jinoyatlarni yashirib kelgandek (O.Yoqubov. Adolat manzili, 85-b.).

Lekin, baribir, ko‘ngil bir sinsa yomon ekan, go‘yo darz ketgan ko‘zadek o‘rniga keltirish qiyin ekan uni! (O.Yoqubov. Adolat manzili, 141-b.).

Sharanovskiyning lablaridagi tabassumi asta so‘ndi, go‘yo bu gaplarga kotibasi aybdorday, qovog‘ini uydi (O.Yoqubov. Adolat manzili, 103-b.).

O'xshatish mazmunidagi ergash gaplarni o'xshatish o'ramlaridan farqlash zarur. O'xshatish o'ramlari, qancha keng bo'lsa ham, tarkibida ega va kesimlari bo'lmagani uchun ergash gap bo'la olmaydilar:

Baliq, xuddi o'lganday, suv yuziga qalqib chiqibdi (O'zbek xalq ertaklari, 67-b.).

Qozi, seni ko'rdim deganday, bosh silkitib qo'yibdi (O'zbek xalq ertaklari, 16-b.).

O'xshatish ergash gaplar nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan fikrni ifodalovchi va tarkibida ega va kesimga ega bo'lgan gapdir. Bu xususiyat, ma'lumki, o'xshatish o'ramlarida bo'lmaydi.

O'xshatish mazmunidagi ergash gaplar o'xshatish, qiyoslash, tenglik ma'nolarini ifodalab keladi. Bu holatda ergash gap real bo'lgan voqea-hodisalarni va real bo'lmagan xayoliy-fantastik hodisalarni anglatishi mumkin.

O'xshatish ergash gaplar bosh gapga ma'lum ohang yordami bilan bog'lanadi. Bunda ergash gapning kesimi quyidagicha bo'ladi:

1. Ergash gapning kesimi **–day, –dek** qo'shimchasini olgan sifatdoshlar bilan ifodalanadi:

a) *Yomonga so'z ta'sir qilmaganday, tayoq ham ta'sir qilmaydi* (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo, 11-b.).

Xalq, qaqragan yer suvga tashna bo'lgandek, ilmga tashna bo'ladi.

Kunduzlari issiqqa chidab bo'lmaganday, kechalari sovuqqa ham chidab bo'lmasdi.

Sadaqasiga qarab savobi bo'lgandek, so'ziga qarab javobi bo'lur (Bir gapim bor, uch tillo, 10-b.).

Sevarani onasi tergay olmaganday, otasi ham bir og'iz so'z ayta olmasdi (Inson kamoloti, 23-b.).

Xuddi bir ish chiqadigandek, har xil maynavozchilik qilib ko'nglimni ko'tarmoqchi bo'lishdi (S.Siyoyev. Yaxshilarga yondoshdim, 47-bet).

b) *Sonsiz oshiqlar oyga termuldi, oy ularga vafo qilganday* (T.Murod. Yulduzlar mangu yonadi, 103-b.).

Jo'ra boboning bundan ko'ngli to'ldi: o'zining to'rig'i uloq ayirganday (T.Murod. Yulduzlar mangu yonadi, 133-b.).

Ot, avlod-ajdodlarini qo'msaganday, yer tepinib kishnadi (T.Murod. Yulduzlar mangu yonadi, 213-b.).

Oymomo, qizaloqlik davrini yodlaganday, ularning o'yinini tomosha qildi (T.Murod. Yulduzlar mangu yonadi, 266-b.).

Olapar, serjant Orziqulovni tanigandek, dumini likillatib, uning qo'lini iskadi (T.Murod. Momo-Yer qo'shig'i, 412-b.).

Ayrim hollarda ergash gaplar tarkibida **go'yo, xuddi** yuklamalari bo'ladi. Ular ergash gapning ma'nosini yanada kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Qo'shiqlar xayollarimni olislarga olib ketdi, go'yo olamda tanho o'zim qolganday, hamma ko'z yoshlarimga cho'kib ketganday (S.Vafo. Ovoraning ko'rgan kechirganlari, 163-b.).

Ko'ngilni bilib bo'lmaydi, u xuddi o'z qonuni va hukmroni bor saltanatday (S.Vafo. Ovoraning ko'rgan kechirganlari, 166-b.).

U yerda ikki-uchta qiz kulganlari kulgan, go'yo ko'ngilochar tomoshaga kelganday (S.Vafo. Ovoraning ko'rgan kechirganlari, 300-b.).

Javlon berilib yozadi, ba'zi satrlarni o'chiradi, yana yozadi, go'yo imtihonda o'tirganini ham unutganday (P.Qodirov. Akramning sarguzashtlari, 234-bet).

Go'yo bog'lovchisi bilan boshlanib, bosh gapdan so'ng kelgan ergash gap mazmunan va intonatsiyada ancha mustaqil bo'ladi, bu mustaqillik kuchli bo'lsa,

bosh gapdan so'ng nuqta qo'yiladi, ma'lum to'xtamdan so'ng ergash gap boshlanadi:

Yo 'ldosh o'zicha unga ta'na qildi. Go'yo alamini papirosdan olganday, ustma-ust tortib, kesak orasiga tashladi (O'.Usmonov. Girdob, 163-b.).

U yigitlarga xos xunuk ovoz bilan o'kirib yig'lab yubordi. Go'yo yuraklarni ezib kelgan alam yukidan forig' bo'lganday, xumoridan chiqib oldi (O'.Usmonov. Girdob, 227-b.).

Saltanatning rang-ro'yi yomonlashgan sari kuyoviga nisbatan uning ichki adovati ulg'ayib borardi. Go'yo hammasiga Aziz aybdorday, uni yomon ko'rar edi (O'.Usmonov. Girdob, 177-b.).

O'zingizni go'llikka solyapsiz! Go'yo kuyovingizning kirdikorlarini bilmaysiz! (O.Yoqubov. Adolat manzili, 112-b.).

Hatto chet ellarga borib ishlasa ham bo'larkan. Go'yo men institutni qoyil qilib qo'ydim-u, chet elga ketadiganday oyim ko'nmadi (S.Siyoyev. Yaxshilarga yondoshdim, 34-bet).

Xullas, ko'plashib-ko'maklashib institutga kiritib qo'yishdi. Go'yo zo'rlab uylantirilgan kuyovday o'qishga ko'nglim bo'lmadi (S.Siyoyev. Yaxshilarga yondoshdim, 34-bet).

Mashina gurullab o't oldi. Go'yo butun olamni tantanavor bir ovoz bosib ketganday bo'ldi (S.Siyoyev. Yaxshilarga yondoshdim, 66-bet).

Mashina atrofiga qo'shni xonadagi yigitlar to'planishdi. Men go'yo ag'darma mashina emas, gijinglagan qorabayir ot olganday tomosha qilishdi (S.Siyoyev. Yaxshilarga yondoshdim, 67-bet).

Daryo olov bo'lib yonadi, ohista tebranadi. Go'yo kimdir ulug'vor, bepoyon palakni yerga yoyib, bir chetidan asta tortqilayotganday (S.Siyoyev. Yaxshilarga yondoshdim, 67-bet).

Hovlilarida pishib, tagiga to'kilib turgan tut endi Akramning ko'ziga boshqacharoq ko'rindi. Go'yo urush vaqtida otasiga katta yaxshilik qilgan tut daraxti uzoqlardan mana shu hovliga kelib qolgan edi (P.Qodirov. Akramning sarguzashtlari,45-bet).

Ba'zan ergash gapning kesimi ot-kesim shaklida bo'ladi. Bunda **–day, –dek** qo'shimchalari bevosita ot-kesimga bog'lanadi, yoki kesim **–day,–dek** qo'shimchalarini olgan **bo'lmoq** fe'li bilan birikadi. Yoki ot-kesim hech qanday qo'shimchasiz keladi – bunda ergash gap va bosh gapni biriktirish uchun **go'yo** yuklamasi xizmat qiladi:

a) *Quyvon gerdayib, xuddi atrofda o'zidan boshqa hech kim yo'qday, baralla qo'shiq kuylay boshlabdi (O'zbek xalq ertaklari, 266-b.).*

Shorasul, xuddi kundosh xotinday, u bilan gaplashmaydi, nuqul yovqarash qiladi (O'.Usmonov. Girdob, 224-b.).

Bulutlarga yondosh osmon ostida

Kiprikdagi yoshday turibdi dorboz (A.Oripov. Yillar armoni,99-bet).

b) *Inson bolasi qanchalar sirli, go'yo g'aroyib matodan bino bo'lganday (O'.Usmonov. Girdob, 226-b.).*

Qosimovning ishiga ega chiqmoqchi, go'yo unga o'zi rahnamo bo'lganday (O'.Usmonov. Girdob, 229-b.).

v) *Bu fikrni akademiya dan kelgan vakil ham ma'qulladi, go'yo u institutda yagona professor! (O'.Usmonov. Girdob, 243-b.).*

Hozir Saltanat boshqacha, ishdan o'zi gap ochdi, uni go'yo birov almashtirib qo'ygan deysiz (O'.Usmonov. Girdob, 270-b.).

O'g'lim sakkiz yildan beri Berlinda, go'yo bobosi deysiz (O'.Usmonov. Girdob, 313-b.).

Ergash gapning sifatdosh orqali ifodalangan kesimi **kabi** ko‘makchisi bilan birga qo‘llanadi:

U kipriklari qirov bog‘lagan kabi, mudrab, boshini paxtalik ichiga berkitib oldi (S.Vafo. Ovoraning ko‘rgan kechirganlari, 316-b.).

Maqsuda xuddi o‘zgarib qolgan kabi, yuzaki gaplar bilan u yoq-bu yoqdan gaplashib vaqt o‘tkazdi (S.Vafo. Ovoraning ko‘rgan kechirganlari, 325-b.).

Muhiddin Jabborovich xuddi katta oqimga tushib olgan kabi, biror bir joyda to‘xtalmay, bir o‘zi shu to‘lqinda ketavergan (O‘.Usmonov. Girdob, 349-b.).

Shuncha dilsiyohliklar yetmagan kabi, Mahamat Turdiboyev kabinetga bostirib kirdi (O‘.Usmonov. Girdob, 343-b.).

U istasa, metin toshlarni

Sovuradi tuproq, kul kabi.

Ammo yorning yuzida u qo‘l

Siypalanar mayin gul kabi (A.Oripov. Yillar armoni,44-bet).

Ayrim hollarda o‘xshatish mazmunidagi ergash gap bosh gapdan oldin keladi. Bu holda ergash gapning kesimi aniqlik fe‘li bilan ifodalanishi mumkin:

O‘zi tabiati xira: go‘yo tishiga bexos tosh tekkanday afti burishdi (O‘.Usmonov. Girdob, 156-b.).

Azizning holiga chin ko‘ngildan kuyundi. Go‘yo “o‘lim” degan mudhish sharpa unga ham bo‘y cho‘zib qaraganday etlari jimirlab ketdi (O‘.Usmonov. Girdob, 154-b.).

Mahamat chatoq Aziz bilan ko‘rishishni ham unutdi: go‘yo bu gaplarning bari o‘ziga taalluqliday bosar-tusarini bilmasdi (O‘.Usmonov. Girdob, 342-b.).

Ayrim hollarda o‘xshatish ergash gapning kesimiga –dek, –day qo‘shimchalari qo‘shilmay, shu qo‘shimchalarga mazmunan teng keluvchi **o‘xshamoq** fe‘li

keltiriladi. Bu fe'l o'zidan oldingi so'zning jo'nalish kelishigida bo'lishini talab etadi:

Saldan keyin tomirlariga sehrli malham quyilganga o'xshab, miyasi ravshanlashib, ko'ngil ozishlari to'xtadi (O.Yoqubov. Adolat manzili, 102-b.).

Lochinning ko'ziga tushgan cho'p uning ko'zlariga tushganga o'xshash, tovoniga kirgan tikan ham vujudini zirqirataardi bu qizaloqning (O.Yoqubov. Adolat manzili, 121-b.).

Bosh gap tarkibida **shunday** olmoshi bo'ladi va uning kesimiga **-ki** yuklamasi qo'shilib keladi, ergash gap esa **go'yo, xuddi** bog'lovchisi bilan bog'lanib, bosh gapdan so'ng keladi. Odatda, ergash gapning kesimi **-day, -dek** qo'shimchalarining birini olgan sifatdosh shaklida bo'ladi:

Bir zum unga shunday tuyuldiki, go'yo butun el, yer-u ko'k, butun "Marjontov" faryod chekayotgandek edi (O.Yoqubov. Adolat manzili, 88-b.).

U shunday o'yinqaroqki, xuddi bir qultum ham sharob ichmagan, go'yo raqsga tushaverib holdan toymagan! (O.Yoqubov. Adolat manzili, 103-b.).

Qiz ovoz kelgan tomonga shunday keskin burildiki, go'yo buyuk haqiqatni kashf etgandek edi (O.Yoqubov. Adolat manzili, 99-b.).

Ba`zan bosh gap kesimi tarkibida **-ki** yuklamasi ham yashirinadi:

Yaproqlari to'kila boshlagan daraxtlar mung'ayib qolgan, go'yo maydonda o'tirgan g'amgin odamlarga hamdardlik bildirardi (O.Yoqubov. Adolat manzili, 77-b.).

Ayrim hollarda bosh gap tarkibidagi bog'lovchi elementlar saqlanib, ergash gap tarkibidagi go'yo, xuddi bog'lovchilari yashirinishi mumkin:

U o'z ishini shunday berilib bajarardiki, butun dunyoni unutgan edi (Каримова. Bir gapim bor, uch tillo, 27-b.).

O‘xshatish mazmunidagi ergash gaplar quyidagi ma’nolarni ifodalab keladi: bosh gapdan anglashilgan harakat-holat ergash gapda ifodalangan harakat-holatga o‘xshatiladi:

Qamchili qo‘limni alamli siltadim, go‘yo omad kulib boqmadi, dedim (T.Murad. Ot kishnagan oqshom, 197-b.).

Oppoq libos kiygan kelin uzatildi, go‘yo butun olam oq kiygan edi (T.Murod. Oydinda yurgan odamlar,240-b.)

Yana o‘n yil o‘tar, go‘yo havodan guvillab o‘tgandek o‘nta samolyot (G‘.G‘ulom. Tanlangan asarlar).

Bunday voqealar Turkiston istilo etilgandan buyon sodir bo‘lmagandi, bu go‘yo osmondan tosh yog‘ilgandek nogahoniy hodisa bo‘ldi (M.Qo‘qonboy. Tog‘ qizi,221-bet).

Bu xildagi ergash gaplarda o‘xshatish, qiyoslash mazmunidan tashqari, sabab va holat ottenkasi ham bo‘ladi. Ergash gap bosh gapdan anglashilgan harakat-holatning nima sababdan ro‘y berishini va bajarilish holatini ifodalaydi:

Arslon g‘orda yashirinib o‘tirganlarni sezganday, juda qattiq na‘ra tortibdi (O‘zbek xalq ertaklari, 68-b.).

Zaldagilar majlisning cho‘zilib ketganidan bezovta bo‘lganday, tez-tez tomoq qirib qo‘yishardi (“G‘uncha”, 2000, 4-son).

Ergash gapli qo‘shma gaplarning ba’zi turlarida, o‘xshatish mazmunidan tashqari, ergash gaplar natija mazmunini ham ifodalaydi:

U shunday kuldiki, yer-u samo titrab ketganday tuyuldi (“Oltin sandiq ochildi”,12-b.).

Muqaddas yosh to‘la ko‘zlari bilan shunday qaradiki, a‘zoyi badanimdan sovuq ter chiqib, yuragim to‘xtab qolganday bo‘ldi (O.Yoqubov. Muqaddas, 250-b.).

U ko‘z oldimda shu qadar oliyjanob odamga aylanib borar ediki, go‘yo men kichrayib, yerga kirib borayotganday edim (O.Yoqubov. Muqaddas, 255-b.).

Yuragimdagi g‘am-g‘ussa shunday og‘ir ediki, yashashim, hayotni davom ettirishim qiyinday tuyulardi (O.Yoqubov. Muqaddas, 266-b.).

Bu turdagi ergash gapli qo‘shma gaplarda ma`lum predmetlarning xususiyati, holati, qiyofasi izohlanishi mumkin:

Har safar Oltinoy bu tasmali sercho‘ntak xaltachani shunday mehr bilan qo‘liga olar ediki, go‘yo Lochin uni qayta hadya qilayotganday edi (O.Yoqubov. Adolat manzili, 177-b.).

U kuyovini shunday intizorlik bilan kutar ediki, go‘yo uning kirdikorlarini unutganday edi (O.Yoqubov. Adolat manzili, 112-b.).

Ko‘zlarim doskadagi uzun ro‘yxatga shunday qadalgan ediki, go‘yo bu ro‘yxat mening hayot-mamotimni hal etadiganday (O.Yoqubov. Adolat manzili, 250-b.).

Pochchalarim iljayib turib bir-birini gap bilan savalab ketishadi, go‘yo kulib turib mushtlashayotgan bokschilardek (S.Siyoyev. Yaxshilarga yondoshdim, 33-bet).

-ki yuklamasi bilan bosh gapga bog‘langan o‘xshatish mazmunidagi ergash gap natija ergash gapga yaqin turadi. Bosh gapdan anglashilgan mazmunning natijasi o‘xshatish, qiyoslash orqali ifodalanadi. Ammo ergash gap bosh gapdan anglashilgan harakat-holatning real natijasi bo‘lmagani uchun natija ergash gap bo‘la olmaydi. O‘xshatish nazmunidagi ergash gap o‘zining ayrim grammatik belgilari tarkibida **go‘yo** yuklamasining bo‘lishi va ergash gap kesimining, odatda, **-day**, **-dek** qo‘shimchali sifatdash orqali ifodalanishi bilan natija ergash gapdan farqlanib turadi.

Ko‘zlari yordam so‘raganday, Azizov aytgan dahshatli haqiqatni inkor etishimni so‘rab, yalinib-yolvorar edi (O.Yoqubov. Muqaddas, 256-b.).

Novdalari birdan qotganday

Ko‘rinadi sukutda tolzor.

Go‘yo nimanidir kutganday

Bulutlar ham yuvosh, beozor ... (A.Oripov. Yillar armoni, 77-bet).

2.3.Miqdor-daraja ma'nosi ifodalangan ergash gapli qo'shma gaplar

Qiyoslash mazmunini ifodalagan ergash gaplar bosh gapda anglashilgan harakat, holat, belgi, xususiyatning qanday darajada, qancha miqdorda ro'y berishi yoki bermasligini anglatishi mumkin.

Miqdor-daraja ma'nosini ifodalagan ergash gap quyidagi yo'llar bilan bosh gapga bog'lanadi:

Ergash gaplarning kesimi shart fe'li formasida bo'lib, bosh gapga quyidagi olmoshlar yordami bilan bog'lanadi:

Ergash gap tarkibida **qancha** yoki **qanchaki**, bosh gap tarkibida **shuncha** olmoshlari bo'ladi; bu olmoshlar harakat-holatning miqdorini ko'rsatadi:

O'ylamayman deb qancha harakat qilsang, shuncha ko'p o'ylaysan kishi (O'.Usmonov. Girdob, 342-b.).

Men qancha ko'p yig'lasam, dushmanlarim shuncha kulayotganga o'xshaydi (O'.Usmonov. Girdob,343-b.).

Kulishni bilmaydigan odam qancha baxtsiz bo'lsa, yig'lashni bilmaydiganlar ham shuncha baxtsizdirlar (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 47-b.).

Ergash gap tarkibida **qanchalik**, bosh gap tarkibida **shunchalik** yoki **shuncha** olmoshi bo'ladi: bu olmoshlar harakat-holatning darajasini ko'rsatadi:

Nuriddin Jabborov Azizni qanchalik yomon ko'rsa, onasi o'lganda shuncha kuyundi (O'.Usmonov. Girdob, 205-b.).

Xalq duosini olish qanchalik savob bo'lsa, uning qarg'shiga qolish shunchalik gunoh sanaladi (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo,13-b.).

Bolalikda quyosh qanchalik sekin chiqayotganday tuyulsa, keksalikda shunchalik tez botayotganday bo'ladi (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo,23-b.).

Ammo tushlar qanchalik shirin bo'lsa, uyg'onib ketgan onlari shunchalik achchiq bo'lardi (O.Yoqubov. Adolat manzili, 129-b.).

Ba'zan ergash gap tarkibida **naqadar** olmoshi bo'ladi:

Ayol mehri naqadar bepoyon bo'lsa, qahri shunchalik qattiqdir (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo,43-b.).

Chol multiq otishga naqadar mohir bo'lsa, yigit ham shunchalik mergan ekan (O'zbek xalq ertaklari, 31-b.).

Saida laganbardorlik, mutelik, hasadgo'ylikdan naqadar yiroq bo'lsa, nazokat va go'zallikka shunchalik oshno edi (G'.G'ulom. Saidda Zunnunova,171-b.)

Miqdor-daraja ma'nosini ifodalagan ergash gapning kesimi fe'l-kesim yoki ot-kesim shaklida bo'ladi:

a) *Ziyodning onasi qanchalik izillab yig'lasa, unga qo'shib men ham shunchalik yig'lardim* (T.Murod. Otamdan qolgan dalalar, 80-b.).

Bozor qancha qimmatlashsa, odam shuncha arzonlashadi (O'.Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar,167-b.).

b) *Dalaning ko'ngli qanchalik nozik bo'lsa, fe'lida shunchalik injiq bo'ladi* (T.Murod. Otamdan qolgan dalalar, 80-b.).

Nodonlar davrasida qanchalik kar bo'lsang, donolar davrasida shunchalik soqov bo'l (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo,204-b.).

Varrak qancha baland havolansa, dardaragi shuncha qattiq bo'ladi (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo,228-b.).

Kesimi sifatdosh bilan ifodalanib, **sari** ko'makchisi bilan birikib kelgan ergash gaplarda miqdor-daraja mazmuni ham anglashiladi. Bu xil miqdor-daraja mazmunidagi ergash gaplar har vaqt bosh gapdan oldin keladi:

Shajaramizni o'qiganim sari, kutilmagan yangiliklarga duch kelar edim
(O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 246-b.).

Ona toliqib orqada qolgani sari, yigit qaddini g'oz tutib tez-tez yurib borardi
(O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 18-b.).

Mashina tepalikka ko'tarilgani sari, uning nafas olishi qiyinlasha boshladi
(S.Vafo. Ovoraning ko'rgan kechirganlari, 93-b.).

*Asaloy ukasini ovutishga uringani sari, u battar avjiga chiqar, yer tepib yanada
balandroq baqirar edi ("G'uncha", 2000, 2-son).*

Miqdor-daraja mazmunini ifodalagan ergash gaplar quyidagi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi:

1.Bosh gapning kesimidan anglashilgan harakat-holatning qancha miqdorda,qancha darajada bajarilishi:

Men qancha xaroblashsam,u shuncha xursand bo'ladi (Oybek .Qutlug' qon,57b.)

Qancha ko'p til bilsangiz, shuncha yaxshi (O'.Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar,39-b.).

Sham qancha yolqinlansa, parvona unga shuncha yaqin keladi (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo,17-b.).

Vatanimdan qancha uzoqlashsam, sog'inch hissi shuncha dilimni o'rtaydi
(M.Alovuddinov. Qashqir izidan, 71-b.).

Ergash gapning bu turida olmoshlar fe'l-kesim yoki ot-kesimga bog'lanadi. Ayrim hollarda bosh gapning fe'l-kesimidan anglashilgan harakatning miqdori yoki darajasi ergash gapning ot-kesimidan angllashilgan belgi-xususiyatning miqdor yoki darajasiga ko'ra izohlanishi mumkin:

Bola qanchalik katta bo'lsa, qizamiq unga shunchalik yengil chiqadi (“Sanam” jurnali).

Bosh gapning kesimiga bog‘lanib kelgan holning qancha miqdorda, qancha darajada bajarilishi:

Ikki qo‘chqor qanchalik ko‘p suzishsa, bo‘rining nasibasi shunchalik butun bo‘ladi (Karimov A. Bir gapim bor, uch tillo,39-b.).

Bu mazmundagi ergash gapli qo‘shma gaplarda bosh va ergash gap tarkibidagi olmoshlar ravish holiga bog‘lanadi. Shu bilan birga bosh gapdagi holatning darajasi ergash gapdagi belgi-xususiyatning darajasiga qarab izohlanishi mumkin. Bu holatda bosh gap tarkibidagi olmosh ravish holiga, ergash gap tarkibidagi olmosh esa kesim vazifasida bo‘lgan belgi-xususiyatga bog‘lanadi:

Daryo qancha chuqur bo‘lsa, u shuncha sekin oqadi.

Odam bolasi qancha ko‘p qiziqsa, shuncha ko‘p o‘qiydi. Qancha ko‘p o‘qisa, shuncha ko‘p biladi. Qancha ko‘p bilsa, yashashi shuncha qiyin bo‘ladi (O‘.Hoshimov. Teskari haqiqat, 42-b.).

Tomirdagi qon bosimi qancha kuchli bo‘lssa, yurak shuncha tez uradi (O‘.Hoshimov. Hayajonlanmang, 302-b.).

Odam qancha qattiq hayajonlansa, qon tomirlari shuncha ko‘p zo‘riqadi (O‘.Hoshimov. Hayajonlanmang, 302-b.).

Ayrim hollarda ergash gap tarkibidagi olmosh **qancha** bo‘lib, bosh gap tarkibida **shunday** olmoshi qo‘llanadi. Bu holatda bosh gapdan anglashilgan holatning qanday darajada ro‘y berishi ergash gapning kesimidan anglashilgan harakatning bajarilish miqdori, darajasiga bog‘liq bo‘ladi:

Kasalxonadagi sherigingga qancha mehr ko‘rsatsang, bir kun kelib u ham senga shunday mehr bilan javob beradi-ku! (S.Vafo .Ovoraning ko‘rgan kechirganlari, 52-b.).

Bunday qo'shma gap ba`zan nisbiy olmoshlar qatnashmagan holda, belgi ma`nosini anglatadigan leksemaning o'zini qiyoslab ishlatish bilan tuziladi:

Onamning muammolari tugamaydi desam, singlimning tashvishlari undan ham ko'p (S.Vafo. Ovoraning ko'rgan kechirganlari, 199-b.).

Paxta ishi og'ir desam, ilm mehnati undan ham og'ir ekan.

Ona mehri daryolarga qiyos desam, ota mehri ham undan kam emas (Каримова. Bir gapim bor, uch tillo,9-b.).

Xulosa

Hozirgacha mavjud bo‘lgan lingvistik tadqiqotlarda sintaktik muammolar kun tartibining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib keldi. Bu jahon tilshunosligida ham, shu jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham kuzatiladi. Qiyoslash insonning dunyoni bilish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet, voqea-hodisani ular o‘rtasidagi mavjud o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash maqsadi bilan qiyoslash tashqi olamni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biridir. Bu usul inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Aytish kerakki, qiyoslash munosabatining tabiati ikki xil, ya’ni farqni ko‘rsatish va o‘xshashlikni ko‘rsatish. Shunga ko‘ra birinchi holatni **qiyoslash**, ikkinchi holatni esa **o‘xshatish** munosabati sifatida talqin etish maqsadga muvofiq.

Qiyoslash ergash gapli qo‘shma gaplardagi asosiy maqsad ikki denotativ voqea va ular o‘rtasidagi farqli jihatni ifodalashdan iborat. Shuning uchun ham bunday gaplardagi voqealar asosiy hollarda real bo‘ladi:

Salima bo‘sh vaqtlarida ijod bilan shug‘ullansa, Sherzod rasm chizishni yoqtirardi (“G‘uncha”, 2000, 2-son).

Yigitning so‘zi qaytguncha, ho‘kizning bo‘yni sinsin (Maqol).

O‘xshatish ergash gapli qo‘shma gaplardagi asosiy maqsad esa denotativ voqea va tasavvuriy voqea o‘rtasidagi o‘xshash jihatlarni ifodalashdan iborat. Ta’kidlash joizki, nutq egasining asl maqsadi faqat bir denotativ voqea haqida xabar berishdir. Nutq egasi muayyan bir voqeani ifodalash uchun bu voqea ifodasidan tashqari yana bir tasavvuriy voqea ifodasini keltiradi, ular o‘rtasidagi aloqa esa o‘xshashlik munosabati asosida yuzaga keladi. Qiyoslash ifodalangan gaplardan farqli o‘laroq bunday gaplarda bosh gap real voqeani, ergash gap esa irreal voqeani ifodalaydi: *Lekin keyingi daqiqada, go‘yo uyqusiragan odamga sovuq suv sepganday, kayfiyati o‘zgardi* (O‘.Usmonov.Girdob,227-b.).

Qoplon, go‘yo Lochinning mudhish niyatidan qaytganini sezganday, qo‘llarini yaladi (O.Yoqubov. Adolat manzili, 178-b.).

Akbarning tizzalari bukilib, cho‘kkalab qoldi, go‘yo oyog‘i osmondan bo‘layotgandek tuyuldi o‘ziga (N.Jaloliddin. Erkagi bor uy, 123-b.).

O‘xshatish ergash gaplardagi mazmun munosabati, **go‘yo, xuddi, bamisoli** kabi yordamchi so‘zlar bilan obyektiv murakkablashishi mumkin.

Bu tur sintaktik qurilmalarda bajaruvchining holati, eganing ifodalanishi quyidagicha:

1. Bajaruvchi boshqa-boshqa bo‘ladi.

a) ega har ikki qismda ifodalanadi:

Bu safar tutqich shunaqangi kuchli zarb bilan biqinimga urdiki, ko‘zimdan olov chiqib ketdi (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 302-b.).

Qurbon kambag‘al bechoralarni xonavayron qilgan “taloq xati”ning mohiyatini tushunardi, shu bois go‘yo osmon boshiga qulagandek bo‘ldi (M.Qo‘qonboy. Tog‘ qizi,215-bet).

b) ega birinchi qismda ifodalanadi:

Lochin uch-to‘rt kunda o‘zini shunday oldirib qo‘ydiki, burungi Lochinning soyasiga aylandi (O.Yoqubov. Adolat manzili, 82-b.).

Ularning biri tumshug‘ini cho‘zib boshqasining og‘ziga nedir solardi, go‘yo unga yemish berayotgandek edi (M.Qo‘qonboy. Tog‘qizi,227-bet).

Boshi va jussasi kichik rangparroq musicha boshini eggancha mayinroq tovushda javob qaytardi, go‘yo uning “ku-ku”lashiga e‘tibor bermagandek (M.Qo‘qonboy. Tog‘qizi,227-bet).

Mushuk ovozni eshitib boshini bo‘yniga tortgancha unga qaradi, go‘yo Mohzodaga e‘tiroz bildirganday (M.Qo‘qonboy. Tog‘qizi,228-bet).

v) ega ikkinchi qismda ifodalanadi:

Xo 'jayinga shunday qaradiki, nafrat bor edi bu ko 'zlarda (“Sanam” jurnali).

2. Bajaruvchi aynan bo‘ladi.

a) ega birinchi qismda ifodalanadi:

Men shunday kuylayki, “sel” bo ‘lib ketadi (“Bekajon” gazetasi).

c) ega har ikkala qismda ifodalanmaydi:

Keyin shunday bo ‘kiribdiki, o ‘rmonni titratib yuboribdi (O‘zbek xalq ertaklari, 76-b.).

Qo‘shma gap tarkibidagi ergash qismning kesimi –**sa** affiksi bilan shakllanadi, bu qism tarkibida **qancha, shunchalik, qanday** olmoshi, bosh gap qismida esa mutanosib holda **shuncha, shunchalik, shunday, o‘shanday** kabi olmoshlar, ba’zan **ko‘p** ravishi qatnashadi:

Ey farzand, ilm xazinasidan qancha olib ishlatsang, u shuncha ko ‘p hosil beradi (Каримов А. Bir gapim bor, uch tillo,39-b.).

Bunday qo‘shma gap shakli ba’zan nisbiy olmoshlar qatnashmagan bo‘lga ham, belgi ma’nosini anglatadigan leksemsning o‘zini qiyoslab ishlatish mumkin:

Paxta ishi og ‘ir desam, ilm mehnati undan ham og ‘irroq ekan.

O‘xshatish ergash gapli qo‘shma gaplarning qismlari –**ki** boglovchisi bilan bog‘lanadi. Ergash gap kesimi tarkibida –**day** o‘xshatish affiksi, bu qism boshlanishida esa ko‘pincha **go‘yo, xuddi** yordamchilari qatnashadi:

Qiz ovoz kelgan tomonga shunday keskin burildiki, go ‘yo buyuk haqiqatni kashf etgandek edi (O.Yoqubov. Adolat manzili, 103-b.).

“Chog‘ishtirish va o‘xshatish ergash gapli qoshma gap” deb talqin qilinadigan hodisalardan –**guncha, -gandan ko‘ra -gani kabi, -ganday** morfemalari tizmasi

bilan shakllangan qurilmalar gap shakl transformasiga teng bo‘lib, bu vositalar bilan gap shakl hollovchi vazifasida ishlatishga hozirlanadi:

Qul bo‘lib yashaydi – gap shakl; [(qul bo‘lib yasha) shdan ko‘ra // gandan ko‘ra] mard bo‘lib o‘lgan yaxshi (maqol) kabi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Ijtimoiy – siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir // «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar. –Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
2. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 bet.
3. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. 2017, 14-январь. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2017. – 104 бет.
4. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2017. – 48 бет.

Илмий adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Ғ. Қўшма гап синтаксиси асослари. – Тошкент: Фан, 1958. – 324 б.
2. Абдурахмонов Ғ. Қўшма гап синтаксиси . – Тошкент: Фан, 1964. -327 б.
3. Абдурахманов Г. Основы синтаксиса сложного предложения современного узбекского литературного языка –Ташкент: Академия Наук, 1960. – С. 126.
4. Асқарова М. Ўзбек тилида эргашиш формалари ва эргаш гаплар. Тошкент, 1966. –183 б.

5. Баскаков А Н. Предложение в современном турецком языке. – М: Наука, 1984. – С. 200.
6. Белошапкова В.А. Современный русский язык. Синтаксис.- М.: Высшая школа, 1977.- С.799.
7. Гулыга Е.В. Теоретические проблемы синтаксиса современных индоевропейских языков.- Л.: Наука, 1975.- С. 206.
8. Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. –Тошкент: Университет, 1999. -55 бет.
9. Нурмонов А., Маҳмудов Н ., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси . –Тошкент: Фан, 1992. -294 б.
10. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –Toshkent: Universitet, 2006, - 464 b.
11. Сайфуллаева Р. Эргашган қўшма гапнинг таснифи. // Ўзбек тили ва адабиёти , 1989, 3-сон, 22-б.
12. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг формал-функционал талқини. – Тошкент: Фан, 1994. - 357 бет.
13. Турниёзов Б. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси. – Самарқанд, 2008.- 84 бет.
14. Турниёзов Н. Қ . Қўшма гап синтаксиси . –Самарқанд: СамДУ нашри , 1995. -80 бет.
15. Турниёзов Н., Турниёзова К. Функционал синтаксисга кириш.-Тошкент: Фан, 2003. -114 бет.
16. Турниёзов Н. Қ. Ўзбек тили структурал синтаксисига кириш. -Самарқанд: СамДУ нашри, 1989. -75 бет.
17. Фортунатов Ф.Ф.Избранные труды. Т.І.- М: Учпедгиз, 1956. 450 с.
18. Черемесина М.И. Синтаксис алтайских и европейских языков. -Новосибирск: Наука, 1981.- С.117.
19. Ўзбек тили грамматикаси . II том. –Toshkent: Fan, 1976. -560 б.
20. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. - Тошкент: Ўқитувчи, 1987.- 255 бет.

Lugʻatlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси , давлат илмий нашриёти , 2006 2008. 1-ж. –680 б., 2-ж. –671 б., 3-ж. –687 б., 4-ж. –606 б., 5-ж. –591 б.
2. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.- Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 168 бет.

Badiiy adabiyotlar

1. Абдулла С. Мавлоно Муқимий. –Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1966. 442 бет.
2. Аловуддин А. Қашқир изидан. –Самарқанд:” Зарафшон”, 2006. 92 бет.
3. Аҳмад С. Уфқ.- Тошкент: F Фулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2013. 631 б.
4. Вафо С.Оворанинг кўрган- кечирганлари.-Тошкент:Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2008. 352 бет.
5. Ёқубов О. Адолат манзили -Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2005. 272 бет.
6. Жалолиддин Н. Эркаги бор уй. -Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2005. 256 бет.
7. Каримов А. Бир гапим бор,уч тилло. –Тошкент: Адолат,1992. 148 бет.
8. Мурод Т. Юлдузлар мангу ёнади. -Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 1994. 94 бет.
9. Мурод Т. Момо-Ер қиссаси. -Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 1994. 138 бет.
10. Мурод Т. Ойдинда юрган одамлар. -Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 1994. 117 бет.

11. Мурод Т. Отамдан қолган далалар. -Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 1994. 272 бет.
12. Муродов Ш. Гуноҳ. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. 304 бет.
13. Мухтор А. Опа-сингиллар.-Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. 389 бет.
14. Ойбек. Қутлуғ қон. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1967. 388 бет.
15. “Тафаккур гулшани”. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. 464 бет.
16. Усмонов Ў. Гирдоб. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. 302 бет.
17. “Ўзбек халқ эртаклари” .-Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. 256 бет.
18. “Ўзбек халқ мақоллари”. –Тошкент: Фан,1988. 371 бет.
19. “G‘uncha”, 2000, 2- son, 3- son, 4-son, 6-son.
20. Ҳошимов Ў. Дафтар ҳошиясидаги битиклар. -Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2005. 256 бет.
21. Ҳошимов Ў. Дунёнинг ишлари .-Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1988. 224 бет.
22. Ҳошимов Ў. Нур борки,соя бор. –Тошкент: Ёш гвардия,1981. 217 бет.
23. Ҳусанов О. Тоғда ўсган бола. –Тошкент: Ёш гвардия,1975. 208 бет.

Mundarija

Ishning umumiy tavsifi	3
Kirish	8
I bob. Qiyoslash mazmunini ifodalagan ergash gapli qo‘shma gaplarning shakllanishi	19
I.1. Qo‘shimchalar yordamida qiyoslash mazmunini ifodalash.....	28
I.2. Yordamchi so‘zlar vositasida qiyoslash mazmunini ifodalash.....	30
I.3. Nisbiy so‘zlar vositasida qiyoslash mazmunini ifodalash.....	34
II bob. Qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gap tiplari	39
II.1. Chog‘ishtirish mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar.....	40
II.2. O‘xshatish mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar.....	43
II.3. Miqdor-daraja ma’nosini ifodalagan ergash gapli qo‘shma gaplar.....	53
Xulosa	58
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	62

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

**SIDDIQOVA MAHLIYO O‘TKIR QIZI
QIYOSLASH MAZMUNINI IFODALOVCHI ERGASH GAPLI
QO‘SHMA GAPLAR**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**5220100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat
ta‘lim yo‘nalishi**

**Ilmiy rahbar
f.f.n A.A.G‘afforov**

SAMARQAND-2018

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

O‘zbek filologiyasi fakulteti

O‘zbek tilshunosligi kafedrası

Siddiqova Mahliyo O‘tkir qizi

Qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar

5220100 – Filologiya (o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi

Malakaviy bitiruv ishi

Ilmiy rahbar : dots. A.G‘afforov

Rasmiy taqrizchi: prof. N.Q.Turniyozov

Malakaviy bitiruv ishi o‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2018 yil maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan (-son bayonnoma).

Kafedra mudiri: f.f.d A.Pardayev

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2018 yil ___ iyundagi majlisida himoya qilingan ___ ball bilan baholangan (___ - son bayonnoma).

YaDAK raisi prof. Sh.Shahobiddinova

A‘zolari:

SAMARQAND-2018

